جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
29-mart
№ 14(14)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

BILIM BULOG‘I



SULAYMON MULKINING MUHRI

Yaqinda maktablardan biriga borgan Navoiy viloyati hokimi Normat Tursunov o‘zini sinfxonaga taklif qilgan mutasaddilarga “darsni buzishga hech kim, hatto hokimning ham haqqi yo‘q” deb aytgan gapi ijtimoiy tarmoqlarda ancha qizg‘in muhokama qilindi. Mas’ul shaxsning maktab, muallim va o‘quvchiga nisbatan bunday hurmati e’tiborga loyiq, albatta.

Bu o‘rinda gap Navoiy shahridagi 8-sonli umumta’lim maktabi haqida ketmoqda. O‘tgan yilgi bitiruvchilarining 64 foizi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilingani bu yerda ta’lim sifati ancha yaxshi yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi.


Darhaqiqat, Navoiy viloyati o‘quvchi yoshlarning oliy ta’limga qamrovi ko‘rsatkichi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shahar markazidagi 8-maktab ham yosh avlodga ilm berishning o‘ziga xos uslublarini kashf eta olgan ustozlar jamoasiga ega dargoh bo‘lib, qariyb ellik yillik tarixga ega.

Maktab binosi 1978-yilda 1570 o‘ringa mo‘ljallab qurilgan. 2020-yilga kelib esa bu yerga bilim olish uchun to‘rt mingdan oshiq o‘quvchi qatnay boshladi.

(Davomi 2-sahifada)

XUSHXABAR

Adabiyotda o‘qishli, badiiy yetuk bir asarning yozilishi, o‘quvchilar javoni-yu qalbidan o‘rin egallashi qanchalar quvonchli hodisa bo‘lsa, uning qardosh tilda chop etilib, boshqa mamlakat kutubxona-yu kitob do‘konlaridan joy olishi ming chandon quvonchlidir.



“ABU RAYHON BERUNIY” – TURKIYADA

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani “Beruniy: Abu Rayhonning siymolari” nomi bilan Turkiyada nashr etildi. Asarni “Zamonaviy o‘zbek hikoyalari” antologiyasi hamda Cho‘lpon va Muhammad Yusuf she’rlarini turkchaga o‘girgan iqtidorli mutarjim Hamza O‘zturkchi tarjima qilgan. Ushbu kitob Istanbuldagi nufuzli “Ketebe” nashriyotida chop etilgan. Unga xalqaro Nobel mukofoti sohibi, professor Aziz Sanjar so‘zboshi yozgan. Hozirda Turkiyaning barcha kitob do‘konlarida sotuvga chiqarilgan.

“Abu Rayhon Beruniy” tarixiy-biografik romani 2020-2022-yillarda yozilgan bo‘lib, “Innovatsion rivojlanish” nashriyoti tomonidan 2023-yilda chop etilgan edi. Asarda nafaqat buyuk allomaning o‘smirligidan to hayotining so‘ngigacha bo‘lgan davri, balki o‘sha paytdagi hukmron sulolalar – xorazmshohlar, somoniylar, ziyoriylar, buvayhiylar, g‘aznaviylar va saljuqiylar tarixi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar uchraydi.

Abu Rayhon Beruniy yer yuzining diametrini bugungi o‘lchovlarga yaqin bir tarzda hisoblagan va geodeziya ilmiga asos solgan buyuk mutafakkirdir. Beruniy Hindistonda ekanida trigonometriyaning astronomiyadan ajratilishi kerakligini ilgari surgan va trigonometrik funksiyalarni hisoblagan. O‘z tadqiqotlari bilan G‘arb dunyosida ham mashhur bo‘lgan bu olim Nyutondan avvalroq yerning tortish kuchidan xabar bergan, Galileydan oldin yerning shar shaklida ekanini aytgan. Hayoti mobaynida geometriya, trigonometriya, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot va tarixga oid 150 dan oshiq asar yozib qoldirgan.

Ushbu tarixiy-biografik roman “Ketebe” saytidagi izohda: “Olimni hurmat qilgan kishi payg‘ambarni ham hurmat qilgandek bo‘ladi” hadisi sharifini shior qilib olgan, ilm, olim va ulamolarning qadr-qimmatini yuksaltiradigan bu ko‘zni qamashtirar darajada yetuk roman bugungi kunga yuzlanib so‘rayotgandek: “Qachon yo‘limizni munavvar qiladigan ilmli yo‘lboshchilarga quloq tutamiz?” deya ta’riflanadi. Bu ham asarga berilgan yuksak baho va e’tirofning nishonasidir.

TASVIRIY SAN’AT

“MEN INSONNING KO‘NGLINI, ORZU-ARMONLARINI CHIZAMAN”

Badiiy akademiya raisi, O‘zbekiston xalq rassomi Akmal Nur bilan suhbatimiz nafaqat uning ijod va hayot yo‘li, balki jamiyatdagi og‘riqli nuqtalarimiz haqida ham kechdi...



– Akmal aka, siz nima sababdan ijod qilasiz? Rang-tasvir siz uchun nima?

– Yashash uchun ijod qilaman. Rang-tasvir – mening hayot tarzim.

– Yaqinda Van Gog haqida bir film ko‘rdim, unda shunday savol-javob bor edi: “Bu gullarni nega chizyapsan?” “Chiroyli bo‘lgani uchun”. “Ular baribir so‘lib qoladi-ku”. “Ular mening tasvirlarimda mangu tirik turadi”. “Shunga ishonasanmi?” “Ularga imkon beraman”. Shu so‘zlardan ham ko‘rinib turibdiki, ijod jarayonida isyon bor, peshonamizga bitilgan o‘tkinchilik qismatiga qarshi isyon. Shoirlar o‘z qalbini so‘zga ko‘chiradi, siz rassomlar esa – tasvirga... Bu fikrga qanday qaraysiz?

(Davomi 6-sahifada)

IBRAT

“Men osmondan pul tushishini kutmayman. Boylik ham, boylikning ortidan keladigan shon ham mehnat va mashaqqat bilan bo‘lgani yaxshi. Bekorga mehnatning noni shirin, deyilmaydi. Chunki zahmat chekib erishilgan muvaffaqiyatning qadri bo‘lak”, deydi surxondaryolik tadbirkor Islom Xudoyberdiyev.

SAHRODAGI BOG‘BON

U bugun uyidan, oilasidan 1200 kilometr uzoqlikda, Orolbo‘yi mintaqasini obod qilish niyatida cho‘l kezib, nihol qadab yuribdi. Islom tadbirkorni u yerga borishga undagan narsa – xalqning dardi, elning tashvishi. “Yer bilan yaxshi tillashadigan” mirishkor dehqon ekanidan xabar topgan qoraqalpoqliklar uni Qo‘ng‘irotga chorladilar, birgalikda daraxt ekib, biyday dalalarimizda bog‘-rog‘lar barpo qilsak, dedilar.

Darvoqe, Islom Xudoyberdiyev 1978-yilda Denov tumanidagi Yurchi qo‘rg‘onida tug‘ilgan. Onasi 48 yoshida saraton kasalligidan vafot etadi. Chirqiragan to‘qqiz bola bilan tul qolgan ota yolg‘izlik dardini jigarporalariga mehr ulashish bilan yengadi. Farzandlarining hammasini oliy o‘quv yurtlarida o‘qitadi.

– Men otamdan matonatni o‘rgandim, – deya gap boshladi Islom tadbirkor. – Har bir ishda mehnat va bardosh kerak ekan. Chorva qildim – daromadini ko‘rguncha, yer chopdim – hosilini yig‘guncha sabr qildim. Bir ishning boshini tutsam, astoydil yeng shimardim, aslo etak qoqmadim. Tog‘am yuz yil yashasang, yuz yillik sabring bo‘lsagina yuzaga chiqasan, derdilar. Rostdan ham shunday ekan.

2018-yilda respublikamizda tomorqa xo‘jaligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratila boshlangach, Islom Xudoyberdiyevga Denov tumanining “Namuna” mahallasidan anchadan buyon qarovsiz yotgan 2 gektar maydonni ajratib berishdi. Yerning ahvoli tang edi. U o‘ylab o‘tirmay, bankdan 2 milliard so‘m kredit oldi. Yoniga o‘z hisobidan 7 milliard



so‘m qo‘shdi-yu, har xil noyob o‘simliklarning urug‘lari, mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari sotib oldi. Turkiyadan keltirilgan kashtan urug‘i, lola daraxti, tatar klyoni, yapon sakurasidan ekdi. Chidamlilik va o‘sish ko‘rsatkichiga qarab mahalliy daraxt nihollarini ham ko‘paytirdi. Shu tariqa “Chag‘oniyon Agro tomorqa xizmati” MCHJni tuzdi.

Ish ko‘zini ish ochadi. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay uning shijoatini ko‘rgan rahbarlar, “sizga Sheroboddan yana ming gektar yer beramiz, gullatasiz, dehqon”, deyishdi. U rad qildi, yerning uvolidan qo‘rqdi.

(Davomi 2-sahifada)

SULAYMON MULKINING MUHRI

Boshlanishi 1-sahifada.

Butun dunyoda hukm surgan pandemiya sharoiti tufayli qanchadan qancha ishlarning to‘xtab qolganiga qaramay, mamlakat rahbarining tashabbusi bilan maktabga yonma-yon maydonda 630 o‘rinli zamonaviy bino bunyod etildi va unga informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab maqomi berildi. E’tibordan va umuman olganda, sohadagi islohotlardan ruhlangan fan o‘qituvchilari o‘zlarining ustida yanada jiddiyroq ishlay boshladilar. O‘tgan 2022-23-o‘quv yilida ularning to‘rt nafari vazir ustamasini qo‘lga kiritdi. Bu yil esa yana ikki nafar o‘qituvchi o‘tkazilgan test sinovlaridan eng yuqori ballar to‘plab, shunga da’vogar bo‘lib turibdi. Shuningdek, matematika fani o‘qituvchisi O‘ktam Toshqulov xalqaro sertifikatni muvaffaqiyatli himoya qildi.



o‘rnashdi. Natijada bizning jamoamiz faoliyatida ham katta jonlanish, ishtiyoq paydo bo‘ldi, – deydi maktab direktori Foziljon Ro‘ziyev. – Maktabimizda 285 nafar o‘qituvchi ishlaydi. Ularning ko‘pchiligi hozir o‘n million so‘mdan ortiq oylik olishmoqda.

Direktorning aytganicha bor, 8-maktab o‘qituvchilarining hech biri shunchaki dars o‘tishni o‘zlariga ep ko‘rmaydi. Ular o‘z umrini, ko‘zining



nurini, butun mehrini yoshlar tarbiyasiga baxsh etadilar. Bugun bu dargohda ishlayotgan yigirma nafardan ortiq o‘qituvchining “Xalq ta’limi a’lochisi” degan sharafli nomga ega bo‘lgani ham, albatta, shundan dalolat beradi. Ha, rag‘bat bor joyda o‘sish bor, rivojlanish bor.

Bugun o‘qituvchi tajriba istab dunyo kezyapti. Boshqa mamlakatlarning ta’lim tizimini o‘rganyapti, o‘qitish uslubini solishtiryapti. 8-maktab o‘qituvchilari Sanobar Zaripova Malayziya va Hindiston mamlakatlarida, Shahzoda Kamolova va Go‘zal Safarova Janubiy Koreyada malaka oshirib kelishdi.

Bunday izlanishlar maktabda ta’lim sifatini yana oshirishga xizmat qilmoqda. O‘tgan yili mazkur dargoh bitiruvchilarining 87 foizi oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga qabul qilingani bunga yorqin misoldir. Maktab bitiruvchisi Shohjahon Bahromov esa naq 385 ming dollar miqdorida grant yutib, dunyoning o‘n ikki mamlakatidagi oliy o‘quv yurtlaridan taklifnomalar oldi. Ayni paytda u AQShning Ogayo universitetida o‘qimoqda. Bu yilgi bitiruvchilarning 100 nafari allaqachon IELTS sertifikatlarini qo‘lga kiritgan. Toshkentdagi INXA universiteti shu maktabga biriktirilishi natijasida o‘quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalariga qiziqishlari yanada kuchaygan. Shu bois bu yerda robototexnika to‘garaklari tashkil etilgan.

Sport sohasida ham yutuqlar talaygina. Maktab o‘quvchilari taekvondo sport turi bo‘yicha ko‘plab musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda. Shuningdek, o‘ndan ortiq sport to‘garaklari ochilib, malakali trenerlar jalb qilingan.

Yana direktorni suhbatga tortamiz. Uning maktab qo‘shimcha hisob raqamiga doir savollarimizga bergan javoblari ta’lim tizimining keyingi yillardagi yaxshi tomonga tub burilishlarini chizib berdi. Jumladan u shunday dedi:

– Pullik shartnomalar asosida fanlarni chuqurlashtirib o‘qitadigan tibbiyot, iqtisod, huquq, jurnalistika yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil qilganmiz, – deydi Foziljon Ro‘ziyev. – Mashg‘ulotlar darsdan keyin, ya’ni soat 14:00 dan 16:00 ga qadar onlayn va oflayn tarzda olib boriladi. Shu maktabda o‘qish-o‘qimasligidan qat’i nazar istagan yoshlar unda ishtirok etishi mumkin. Buning uchun har oyda atigi 125 ming so‘m to‘laydi. Shu tariqa bir o‘quv yilida 600 million so‘mdan oshiq pul maktab hisob raqamiga kirim qilinadi. Bu mablag‘ning teng yarmi eng yaxshi o‘qituvchilarning oylik maoshiga qo‘shimcha ustama sifatida to‘lab beriladi. Qolgan qismi maktabning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun sarf etiladi.

Direktorning aytadigan gapi ko‘p. Ayniqsa, uning maktab o‘quvchilari har kuni darsdan oldin Vatanni madh etuvchi qo‘shiqlarni kuylashi haqidagi so‘zlari menga qattiq ta’sir qildi. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu – 8-maktabning o‘ziga xos “tashrif qog‘ozi”-ga aylangan. Yoshligidan ona yurtini tarannum qilib, vatanparvarlik tuyg‘usini ko‘ngliga joylab ulg‘aygan inson kelgusida uning ravnaqi uchun astoydil xizmat qilishi shubhasiz.

Maktab jamoasi to‘g‘ri yo‘lni tanlagan. Ta’lim bilan tarbiya birga olib borilsa, maqsadga erishish oson kechadi. Yaxshi tarbiya ko‘rgan bola, albatta, yaxshi o‘qishga harakat qiladi. Mavlono Jaloliddin Rumiy deydiki: “Bilim Sulaymon mulkining muhridir, butun olam jasaddir, ilm jondir”. Ha, bu o‘n sakkiz ming olamning joni – ilm. Mulki Sulaymonning muhri – ilm. O‘qimoq, o‘rganmoq, bilim dengiziga sho‘ng‘imoq har qanday xazinai sirga yetkazgay...

M.PIRNAFASOVA



SAHRODAGI BOG‘BON

Boshlanishi 1-sahifada.

Qo‘lidan keladiganini shartta aytib, Angor tumanining “Ilg‘or” mahallasidan 253 gektar yerni oldi-yu, 52 ming tup xitoy tuti, turk o‘rigi va olchasining ko‘chatini oborib ekdi. Serg‘ayrat tomorqachi 120 kilometrlik yo‘lni pisand qilmay, Denov-Angor oralig‘ida tinimsiz yeldi-yugurdi. Daraxtlarning orasiga qovun-tarvuz-u piyoz ekib, 370 ming dollarga Eron va Pokiston mamlakatlariga eksport qildi. Rossiya bilan 1 million dollarlik shartnoma imzoladi. Rus diyoriga quritilgan meva jo‘natishni boshlab yubordi.

Katta ishning tashvishi ham ulkan bo‘ladi. Tadbirkor yigirma nafar doimiy xizmatchini ishga qabul qildi. Har mavsum uchun uch yuz nafar ishchi yollaydigan bo‘ldi. Tadbirkorligiga bordi: ishchilarining tomorqalarini ham e’tiboriga oldi. Ularning-da ekin yerini bog‘larga aylantirdi. O‘ziga yaqinlashganki bor, tomorqa bilan ishlashni o‘rgatdi.

– Hisoblab ko‘rsam, shu chog‘gacha roppa-rosa 64 xil daraxt ekibman, – deydi u. – Birgina xitoy tutidan 4 million tup o‘stirdim. Qaysi nav qanaqa sharoitda rivojlanishini uxlab yotgan joyimda so‘rasangiz aytib bera olaman. Qo‘ng‘irotga 2023-yilning noyabr oyida keldim. Sahroning sovug‘i odamning vahmini qo‘zg‘aydi. Tuproqning sho‘rligiyam bor. Ikki ming gektar yerga 20 ming tup xitoy tuti ekamiz, deyapman. Aholi shu qumlikka o‘rgangan. “Islam ag‘a, bul tutmaydi”, deyishgani deyishgan. Hatto, mahalliy mutaxassislar ham fikrimdan qaytarmoqchi bo‘lishdi. Ularning “bo‘lmaydi”siga qaramadik, daraxt ekishni boshlab qo‘ydik. Tut o‘z nomi bilan tut-da. Cho‘l havosiga, sho‘rga-yu, suvsizlikka chidamli. Nasib etsa, daraxtlarimiz yetilgach, bu yerda ham pillachilik rivojlanadi, qancha odam ish bilan ta’minlanadi.

Xullas, shunday zahmatkash bog‘bonlarimiz bor ekan, hali yurtimizning nafaqat qir-adirlari, balki sahro-yu dashtlarida ham ko‘rkam bog‘-rog‘lar gurkirab o‘sishiga ishonamiz.

Muhayyo RUSTAM qizi

TAKLIF

KUTUBXONA – KUTISH XONASIMI?

yoxud kitobni qanday o‘qish va o‘qitish kerak?

MA’SUM GO‘DAKNING HAYRATLARI

Yaqinda besh yashar qizim va ikki yarim yashar o‘g‘limni olib Respublika bolalar kutubxonasiga bordim. To‘g‘risi, bunday dargohlarga qadam qo‘ymaganimga ancha bo‘lgan edi. Keyingi paytlarda faqat elektron kitoblar o‘qib, ish payti audiokitoblar tinglab, nari borsa yo‘lim tushganda kitob do‘konlaridan sotib olganlarim bilan qanoat qilib yurgan edim. Bu ancha qulay va ishga ham unchalik xalal bermaydi. Ammo, tan olish kerakki, yangi chiqqan kitoblarning hammasini ham sotib ololmayman, ularning elektron variantlari ham har doim topilmaydi. Kutubxona sari ketarkanman, har doimgidek tokchalarga bir xilda taxlangan jild-jild eski kitoblar, chang bosib yotgan javonlar va bitta kitobni topib berguncha 10-15 daqiqa kuttiradigan qo‘rs kutubxonachi xodimlar ko‘z oldimdan o‘tib, bolalarimni bekor olib boryapman-da, hali bular o‘qishni ham bilmaydi-ku, degan ming turli xayollar kechdi ko‘nglimdan. Ammo yaqindagina ta’mirlangan zamonaviy bino eshigidan kirishim bilan boyagi xavotirli o‘ylarim tumanday tarqab, ko‘nglimga ajib bir yorug‘lik yopirilib kirdi. Yakshanba kungi bozordan ham gavjum kutubxonada endigina esini tanigan yosh go‘daklardan tortib, nuroniy qariyalargacha kitob o‘qib o‘tiribdi. Kitoblar ham har bir yosh toifasi uchun alohida va juda qulay tarzda taxlanganki, ikki yarim yashar o‘g‘lim ham bemalol o‘zi uchun kitob tanlab, rasmlarini tomosha qilishni boshlab yubordi. Bolalarga atalgan kitoblar bizning davrimizdagidek og‘ir va katta-katta albomlardan iborat ertaklar emas, zamonaviy 3D o‘lchamdagi ovozli, animatsiyali, jumboqli dasturlar yordamida ishlab chiqilgan xorij kitoblari edi. Ularni har qanday yoshdagi bolaga ko‘rsatsangiz ham og‘zi ochilib, bir soat tomosha qiladi. Xullas, kutubxonani ortiqcha ta’riflab o‘tirish niyatim yo‘q. Ammo shundan beri deyarli har yakshanba boradigan bo‘lganim bu maskanda chiqargan bir nechta xulosalarimni aytib o‘tmoqchiman.

Bolalar kitobga qiziqmaydi, telefon, kompyuter turganda qog‘ozlarga qaramaydi, degan gaplar yolg‘on, shunchaki biz ularni qiziqtira olmayapmiz. Har bir bolaning ko‘nglida kitoblarga, o‘qib-o‘rganishga intilish, qiziqish bor, faqat uni mana shunday maskanlarda kuchaytirish, rivojlantirish kerak.

Bolalar kutubxonasini yanada kengaytirish va iloji bo‘lsa har bir viloyatda xuddi shunday shaklda filiallarini ochish lozim hamda mana shunday sog‘lom va erkin muhitni yaratish kerak.

Bolalarga mo‘ljallangan kitoblar asosan rus va ingliz tillarida ekani va ularning sifati hamda saviyasi o‘zbek tilidagisidan ancha yaxshiligini tan olgan holda, biz ham kichkintoylar uchun o‘zbekcha zamonaviy nashrlarni ko‘paytirishimiz va xorijiy nashrlarni tarjima qilib boraverishimiz kerak.



Kitob deganda biz faqat matn va rasmlardan iborat katta-katta albom yoki ensiklopediyalarni tasavvur qilishga ko‘nikib qolganmiz. Bu tushunchadan voz kechib, bog‘cha yoshidagi bolajonlar uchun alohida nashrlarni, rasmli, 3D o‘lchamli, animatsiyali kitoblarni chop etib, har bir bog‘chaga yetkazish va ularning ko‘rgazma javonlarida qolib ketmasligiga alohida e’tibor qaratishimiz kerak.

“O‘TKAN KUNLAR” OHANRABOSI

Bir necha oy oldin mashinada Surxondaryoga ketarkanman, gaz quyish shoxobchasida to‘xtadik. Men ham boshqa yo‘lovchilar qatori mashinadan tushib, bir chetda odamlarni kuzata boshladim. Shunda yo‘l chetida, aftidan maktab o‘quvchisi bo‘lsa kerak, bir yigit meva sotib o‘tirganiga ko‘zim tushdi. Mening e’tiborimni tortgan narsa uning qo‘lidagi kitob bo‘ldi. Yigit savdo qilish barobarida kitobdan ko‘zini uzmas, salgina qo‘li bo‘sh qoldi deguncha maroq bilan mutolaaga tushib ketardi. Bir-ikki daqiqa ham o‘qimasdan yana savdo qilishga majbur bo‘lardi. Ammo o‘sha bir-ikki daqiqa davomida uning yuzida ajib bir hissiyotlar mavj urardiki, unga beixtiyor havasim keldi. Yoniga yaqinlashib, kitobning muqovasiga razm soldim: “O‘tkan kunlar”. Kitob yarmidan oshib qolgan, demak, voqealar eng qizg‘in pallasiga kirgan. Balki, Zaynabning kundoshlik iztiroblari, Kumushning araz o‘yinlari yigitni o‘ziga shunchalik tortayotgandir. Yoki Otabekning haydalish kuyini tinglab, karvonsaroyda boshini changallab o‘tirgani ko‘z oldida jonlanayotgandir... Ammo bir satr bo‘lsin o‘qishga tutinayotgan o‘smirning bu damda tuyayotgan zavqini so‘z bilan ta’riflab bo‘lmasdi. Jizzaxning chekka bir joyida yo‘l yoqasida tinimsiz savdo-sotiq qilish davomida ham shunday rohatlanib mutolaa qilish mumkin ekan-da...

Bu voqea sababli ko‘nglimda bir necha mulohazalar tug‘ildi.

Yaxshi kitob qachon va qayerda bo‘lmasin o‘z o‘quvchisini topadi va kitobxonni o‘ziga shunday bog‘laydiki, unga mutolaa qilish uchun hech narsa xalal bera olmaydi.

Hali ham kitobga ixlosmand, mutolaadan cheksiz zavq va shavq tuya oladigan yoshlarimiz bisyor, demakki kelajakdan umidimiz bor.

Ana shunday jamoat joylarida ixcham kutubxonalarni tashkil etish va mutolaa uchun qulay sharoitlar yaratish boshqa yoshlarni ham kitobga qaytarishga ko‘mak berishi mumkin.

KUTUBXONACHINING KO‘Z YOSHLARI

O‘tgan yili Prezidentimiz tashabbusi bilan har bir mahallada kutubxona tashkil etilayotgani haqida o‘qib qoldim. Qanday ajoyib ish, har bir mahallaning o‘z kutubxonasi bo‘lsa!.. Shu asnoda o‘quvchilik davrimiz bilan bog‘liq xotiralar ko‘z oldimda jonlandi.

Maktabni bitirar chog‘imizda qishlog‘imizdagi kattagina kutubxona buzilishga tushdi. Butun tumandagi kutubxonalar bitta joyga birlashtirilar ekan, degan gap-so‘zlar paydo bo‘ldi. Bundan bizning ko‘nglimiz-da allanechuk buzildi. Chunki har hafta kutubxonachi Ziyoda opaning tavsiyasi bilan bir nechta kitobni uyga olib ketib, o‘qib kelardik va mazmunini opaga gapirib berib, keyin boshqasini olardik. Agar ularning kitob bo‘yicha bergan savoliga javob bera olmasak, “boshqatdan o‘qib kel”, deb kitobni o‘zimizga qaytarib berardi. Agar yaxshi javob bersak, u bizni ko‘kka ko‘tarib maqtardi, undan-da qiziq kitoblarni tavsiya qilib, ko‘nglimizni chog‘ qilardi. O‘sha damlarni eslasam, oddiy kutubxonachining bunday fidoyiligi qanchadan qancha tengdoshlarimning, qishloq bolalarining mutolaa zavqini tuyishiga, badiiyat olamiga kirib, katta hayotni tanishiga qanchalik katta hissa qo‘shganini anglayman.

Kutubxona buzilishi haqidagi xabarni eshitib, tengqurlarimiz bilan olgan kitoblarimizni ham o‘qib tamomlamasdan Ziyoda opaning oldiga shoshganimiz esimda. Opa bizning “Nega?”, “Bu kutubxonaning kimga zarari tegayotgan edi?”, “Endi biz qayerdan kitob olamiz?” kabi bolalarcha bergan savollarimizga javob berolmay, mehrli ko‘zlarini yerga tikib jim qotgan, so‘ng birdan yig‘lab yuborib bizni ham noqulay ahvolga solib qo‘ygan edi. Ularga bir yupanch so‘z topolmay, indamay ortimizga qaytganmiz. O‘qilmagan kitoblarimiz kutubxonachi opaning stolida qolib ketgan. Shundan so‘ng qishloq kutubxonalari birin-ketin yopilib ketdi, tuman markazidagi axborot-resurs markazi esa barcha kichik kutubxonalarni birlashtirib, boyish o‘rniga dastlab tuman xalq ta’limi bo‘limi binosiga, undan so‘ng tibbiyot kolleji axborot-resurs markaziga, keyinchalik yana boshqa joylarga ko‘chib-ko‘chib, bor fayzini ham, boyligini ham yo‘qotdi. Qancha kitoblar javonlarga sig‘masdan yerto‘laning zax xonalarida chirib, sichqonlarga yem bo‘ldi...

Ana shunday xayollar bilan mahallamizdagi o‘yingoh yonida plastik materialdan qurilgan, tepasiga “KUTUBXONA” deb yozilgan kichik uychaga yaqinlashdim. Kutubxona deganda biz qator-qator javonlar, kitoblarni saqlash talablariga javob beradigan bir xil haroratda tutib turiladigan keng va yorug‘ xonalarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Ammo mahallaning bu mo‘jaz kutubxonasi “yuqori”ga hisobot uchun qurilgan bir “budkacha” edi, xolos. Kirmoqchi bo‘lib razm soldim, ammo eshigi berk. Oynali eshik va derazalardan ichkari mo‘raladim. Bir nechtagina stol va 5-6 ta stul qo‘yilgan. Devorga yopishtirilgan javonlarda asosan ijtimoiy-ma’rifiy adabiyotlar va bir tomonda bir necha qator terilgan kitoblar turibdi. Eshikni qayta-qayta tortib ko‘rdim. Ochilmadi. Shu yerdan o‘tib ketayotgan bir ayol meni ko‘rib, “JEK”ni izlayapsizmi, qo‘ng‘iroq qila qoling”, deb derazaga yozilgan telefon raqamiga ishora qildi. Men kutubxonaga kelganimni aytganimda u ensa qotirib kulimsiradi. “Kutubxonaga kiritishmaydi, bu yerda JEK xodimlari o‘tiradi. Hozir kim ham kitob o‘qirdi!” deb yana bir g‘alati qarash qildi-yu, nari ketdi. Xayolimdan turli o‘ylar kechdi.

Mahalladagi kutubxonalar bunday bo‘lmasligi kerak, agar kattaroq bino ajratilib, zamonaviy, qiziqarli kitoblar bilan boyitilsa, o‘quvchilarni undan haydab ham chiqara olmaysiz, yo‘qsa u mana shunday qaysidir xususiy tashkilotning ofisiga aylanib qolaveradi.

Yaqinda “Jadid” gazetasida bir taniqli olimning vaqtida jadid bobolarimiz tashkil qilgan tarixiy “Turon” kutubxonasini qayta barpo etish va kengaytirish haqidagi taklifini o‘qib qoldim. Mana shunday markazlashgan katta kutubxona, albatta, kerak. Shu bilan birga, ommaviy va mahalla kutubxonalarini barpo etishga ham jiddiy ahamiyat qaratishimiz kerak.

Kutubxonachilikni rivojlantirish, mahallalardagi va ta’lim muassasalaridagi kutubxonachi xodimlarning mashaqqatli va sharafli mehnati uchun munosib haq to‘lash, malakali va fidoyi mutaxassislarning qadriga yetish kerak.

Har qanday davrda ham yoshlar yangi narsalarni o‘rganishga, yangiliklarni o‘zlashtirishga o‘ch bo‘ladi. Ularni qaysi tomonga yo‘naltirish esa, siz-u bizning qo‘limizda. Bugun Uchinchi Renessans haqida orzulayotgan ekanmiz, Imom Buxoriy hazratlari aytganidek, bu yo‘lda ilmdan o‘zga najot yo‘q va bo‘lmagay.

BEKZOD IBRAGIMOV

MULOHAZA

BIR ROMAN SABOG‘I

Abdulla Qodiriyning romanchilikdagi ustozlaridan biri – livanlik mashhur yozuvchi Jurji Zaydon (1851-1914) ekani o‘zbek adabiyotshunosligida ko‘p bor e’tirof etilgan.

Jurji Zaydonda Sharq, jumladan, arab tarixiga qiziqish 1885-yilda, u Damashqdagi madrasada tahsil olayotgan davrida uyg‘onadi. Talabalik yillarida u ibroniy va suryoniy tillarini puxta o‘rganib, shu tillarda bitilgan qo‘lyozmalarni o‘qishga kirishadi. 1886-yili Londonga qilgan safarida ham ko‘p vaqtini kutubxona-yu arxivlarda Sharq va arab tarixiga oid qo‘lyozmalar mutolaasi bilan o‘tkazadi.

Yevropa sayohatidan qaytgan Jurji Zaydonga “Nega Sharqda mahdudlik hukmron?” degan savol tinchlik bermasdi. Bunday mahdudlikdan qutulish yo‘lini u xalqni savodli qilishda ko‘radi va buning uchun, avvalo, odamlarga o‘z tarixini o‘rgatish lozim, degan xulosaga keladi. Biroq, taassufki, o‘sha kezlarda arab tarixini, asosan, Yevropa olimlari yozar edi. “Arablar o‘tmishini ovropalik olimlar yozayotgani biz uchun uyat. Biz har bir xalq, mamlakat tarixini o‘z olimlari, adiblari yaratadigan darajaga yetmog‘imiz lozim”, deydi u kuyunchaklik bilan.

Jurji Zaydon fikricha, xalqqa o‘z tarixini qaytarishning eng samarali yo‘li uni badiiy asar, to‘g‘rirog‘i, romanlar shaklida taqdim etish edi. U tarixiy romanning asosiy prinsipini quyidagicha belgilaydi: “Biz Yevropa adiblaridan farqli ravishda, qahramonlarni birinchi planga olib chiqib, tarixiy voqealarni ikkinchi o‘ringa surib qo‘ymaymiz, – deb yozadi adib. – Biz uchun tarixiy voqealar birinchi o‘rinda turadi, qahramonlar esa o‘sha real o‘tmish voqealari orasida harakat qiladi”. U Yevropa adiblari deganda ingliz va fransuz adiblari – Valter Skott, Viktor Gyugo, Aleksandr Dyuma kabi tarixiy roman ustalarini nazarda tutgandi.

Jurji Zaydonning bu qarashi ancha asosli edi. Masalan, A.Dyuma romanlarida qahramonlar sarguzashtiga qiziqib ketilib, tarixiy voqealar xronologiyasiga ko‘pam e’tibor berilmas, bir-biridan yiroq davrlarda yuz bergan voqealar bir vaqtga jamlanar, keyinroq yuz bergan voqea avvalroq yuz berganidan oldinda kelar, bir davrda yashamagan va hech qachon uchrashmagan tarixiy shaxslar yonma-yon harakat qilar edi. Tarixiy romanga doir o‘z qarashlarini bayon etar ekan, Zaydon yana shunday deb yozadi: “Yevropa adiblari o‘z qahramonlariga mahliyo bo‘lib qoladi va ulkan tarixiy faktlarni faqat zarur bo‘lgan o‘rinlardagina keltirish bilan asarning real tarixga asoslanganini ta’kidlamoqchi bo‘ladi. Biz esa tarixning mayda-chuyda faktlarigacha nazardan qochirmaslikka harakat qilamiz. Mayda faktlar e’tiborga olinmas ekan, katta voqealar qanday yuzaga kelgani tushunarsiz bo‘lib qoladi. Katta yong‘in kichik uchqundan boshlanadi. Sevgi qissalarimiz esa kitobxon diqqatini asarga mixlab olish uchun to‘qiladi”.

Jurji Zaydon o‘z romanlariga mavzuni Arab xalifaligi o‘tmishidan tanladi. U tarixga doir bilimlarini yana boyitish maqsadida Qohira va boshqa joylardagi kutubxona, muzey, qo‘lyozmalar arxivida saqlanayotgan, hali deyarli o‘rganilmagan manbalar bilan tanishdi, ularni o‘z asarlariga asos qilib oldi.

Uning shu yo‘ldagi dastlabki dadil qadami – “Islom tamadduni tarixi” asari arablar hayotini Islomgacha bo‘lgan zamonlardan to Sharqning ilk Uyg‘onish davrigacha kechgan uzoq tarixini qamrashi lozim edi. Islom tamaddunining Sharqda – Turkistongacha, G‘arbda – Shimoliy Afrika va Ispaniyagacha tarqalishiga hissa qo‘shgan xalifalar, lashkarboshilar, jangchilar, solnomachilar xizmatini yangicha nuqtai nazardan baholash talab etilardi. Shu asnoda biri boshqasini uzviy davom ettiruvchi besh jilddan iborat romanlar silsilasi paydo bo‘ladi.

Asar shartli ravishda ikki qismga bo‘linib, birinchi qismda Bag‘dod xalifaligi shakllangungacha bo‘lgan ma’jusiyat davri, Umaviylar sulolasining gullab-yashnashi va mo‘g‘ullar istilosi sabab tanazzulga uchrashi bosqichlari aks ettiriladi. Ikkinchi qismda esa Usmonli Turk saltanati va Safaviylar sulolasi davri tarixi qamrab olinadi. Yevropalik olimlar bu ko‘pjildli asarda tarix xolis yoritilganini e’tirof etishadi.

Jurji Zaydon 1892-yili “Al-Hilol” adabiyma’rifiy jurnalini nashr eta boshlaydi va yigirma yil, ya’ni vafotiga qadar uning bosh muharriri va noshiri bo‘ladi. Adibning yigirma ikkita tarixiy romani shu jurnalda davomli e’lon qilinib, nashr katta adadda chop etilishi va xalq orasida keng tarqalishini ta’minlaydi.

Zamondoshlari uning romanlaridagi tarixiy faktlarni afsona deb qabul qilmasligi uchun u ming yillar oldin bitilgan arab solnomalaridan katta-katta iqtiboslar keltiradi. Bu iqtiboslar Ibn Batuta, Ma’sudiy, Yoqubiy, Ibn Hollikon, Yoqut Hamaviy va boshqa muarrixlar asarlaridan olingan edi. Jurji Zaydon “Ramazonning o‘n yettinchi kuni”, “Al-Ma’mun va Al-Amin”, “Xorun ar-Rashid singlisi Abbosa” kabi talay asarlari qatori “Farg‘ona kelini” romanida ham shu usulga murojaat etadi.

“Farg‘ona kelini” romani O‘zbekiston tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga taalluqli bo‘lgani sabab uni tarjimon Shoikrom Shoislomov o‘tgan asrning 60-yillarida tarjima qilgan, roman katta adadda chop etilgan edi. Adib romanni yozishda, garchi o‘zi Turkistonga kelmagan bo‘lsa-da, ammo talay solnomalardan foydalangan.

Asar “Farg‘ona kelini” deb nomlansa-da, biroq uning bosh qahramoni farg‘onalik jangchi yigit – Zirg‘omdir. Uning sevgilisi – Farg‘ona hokimining qizi Jahon Bag‘dod xalifasi Mustaqimga nazira qilib yuboriladi. Sho‘rlik oshiq xalifa haramidagi behisob kanizaklardan biriga aylanishga mahkum sevgilisini qutqarish maqsadida karvon ortidan yo‘lga tushadi. O‘z sheriklari yordamida qizni o‘g‘irlab, karvonni talashga bir necha bor urinadi, ammo omadi chopmay, Iroqqa, Bag‘dodgacha ergashib boradi.

Xalifaga shunday naziralar bir tarafi Xitoy sarhadlari, boshqa tarafi Atlantika qirg‘oqlariga cho‘zilgan ulkan hududdan har kuni kelar, bokira qizlar xalifa nazariga tushguncha haramda navbat kutar, agar nazardan chetda qolsa, qariguncha shu yerda yashashga mahkum edi.

Jahondan umidini uzmagan Zirg‘om xalifalikning turkiy jangchilari safiga qo‘shiladi, ko‘plab janglarda qatnashib, qahramonlik ko‘rsatadi. U haramga o‘z nomidan xabar kiritib, Jahondan o‘zini asrashni iltimos qiladi. Nihoyat, Zirg‘om janglarda qahramonlik ko‘rsatib, halifaning nazariga tushadi. Bag‘dod hukmdori taqdirlamoqchi bo‘lganida u haram kanizaklari orasida yashayotgan sevgilisini ozod etishini so‘raydi...

Xalifa Mustaqim qo‘shinida turkiylar ko‘pchilikni tashkil etib, ular Mustaqimning bobokaloni Xorun ar-Rashid davridan buyon shaharning alohida qismida yashardi. Xalifalik qo‘shinidagi bu botir jangchilar Bahrom Cho‘binning avlodlari hisoblanar edi. Bahrom Cho‘bin esa eramizdan oldingi ikkinchi asrda Oltoy, G‘arbiy Mo‘g‘uliston va Xitoyni o‘z ichiga olgan Markaziy Osiyoda xunlar quvg‘iniga uchrab, skiflar, saklar, yujechilar qatorida O‘rta Osiyoga ko‘chishga majbur bo‘lgan parfiyaliklarning avlodi bo‘lgan.

Parfiyaliklar yanada g‘arbga yo‘l olib, forslarning Iskandar Maqduniy parchalagan Ahamoniylar saltanatiga teng davlat – Parfiyonani bunyod etadi. Ammo forslar yana bosh ko‘tarib, ularni bu yerlardan haydaydi va eramizning III asrida Sosoniylar davlatiga asos soladi. Lekin Parfiyonaning yuksak jangovar layoqatga ega bo‘lgan 240 nafar aslzoda beklari saroy xizmatida qoldiriladi. Bahrom Cho‘bin oradan uch yuz yil o‘tib, ana shu beklardan birining avlodiga tegishli xonadonda dunyoga keladi. “Cho‘bin” so‘zi qarg‘a ma’nosini ifodalaydi.

Bahrom Cho‘bin kuch-quvvatga to‘lib, fors lashkarboshisi sifatida Buxoroni egallagach, shon-shuhrati yanada oshib ketadi. U qo‘lga kiritilgan o‘ljani bo‘lishda fors hukmdori bilan nizolashib qolgach, undan taxtni tortib olib, bir yilcha hukmronlik qiladi. So‘ngra turkyutlar shohi Yun Yolligu huzuriga borib, uning qiziga uylanadi va Balx shahrida muqim yashab qoladi. Bu yerda paydo bo‘lgan “qarg‘a-pur” – “qarg‘a avlodi” mahallasida Bahrom Cho‘bin avlodlari istiqomat qilgan.

VII asrdagi arablar fathida Balx taslim bo‘lgach, Bahrom Cho‘bin avlodlaridan tuzilgan qo‘shin arablarga qo‘shilib, Movarounnahrni egallashda ishtirok etadi. Farg‘ona vodiysiga yurish paytida “qarg‘a avlodlari” shu yerda o‘troqlashib qoladi. Arablar hokim bo‘lishsa, “qarg‘a avlodlari” askar edi.

VIII asrda bir yuzboshi Bag‘dod xalifasi Xorun ar-Rashidga Farg‘ona hokimidan xat keltiradi. Xatda bu mulozim va uning hamrohlari juda mohir jangchilar ekani qayd etilib, xalifadan uni davlat xizmatiga olish iltimos qilingan edi. Xorun ar-Rashid Arqoq ismli bu jangchining o‘zi xohlagan joyda o‘rnashishiga ruxsat beradi. Shunda u qadimiy ajdodlari yashagan Balx shahri atroflarida istiqomat etish uchun izn so‘raydi. Xalifa Termizga kelgan paytida Arqoq Balx atrofidagi Somon qishlog‘ini sotib oladi.

Xalifa Ma’mun davrida Arqoqning nabiralariga janglarda ko‘rsatgan qahramonligi uchun Samarqand shahri va viloyati hokimligi in’om etiladi. O‘sha kezlarda Buxoro noibi Yoqub ibn Laysning tinimsiz jabr-zulmidan bezor bo‘lgan xalq unga qarshi isyon ko‘taradi. Yaqinda Samarqand hokimi etib tayinlangan Nasr bu qo‘zg‘olonni bartaraf etish maqsadida yigirma besh yoshli ukasi Ismoilni qo‘shinga bosh qilib, Buxoroga yuboradi. Buxoro xalqi uni shod-xurramlik bilan kutib oladi. Ismoil barcha aybdorlarni tutib, munosib jazolaydi. U 874-yili Buxoroda Somoniylar saltanatiga asos soladi. Keyinchalik Samarqanddan to Balxgacha bo‘lgan hududlar Somoniylar saltanati tarkibiga kiradi.

“Farg‘ona kelini” romanida ayni o‘sha davr – Xalifalik tanazzulga yuz tutib, Somoniylar saltanati yuksalish pallasiga kirgan, Islom olamidagi ilk Renessans – Uyg‘onish davri boshlangan muhtasham to‘qqizinchi-o‘ninchi asrlarda yuz bergan voqealar tasvirlanadi.



Jurji Zaydon romanlarini o‘qir ekansiz, u nafaqat iste’dodli adib, balki yetuk olim ham bo‘lganini his etasiz. Uning ilm bobidagi izlanishlari “Arab hazorasi tarixi”, “Arab tili tarixi”, “Arab adabiyoti tarixi” kitoblarida o‘z ifodasini topgan. U shuningdek, arab jamiyatiga Yevropani yaqindan tanishtirish maqsadida “Yevropa tarixi” asarini yaratgan. Adib Fransiya ta’lim tizimini tafsiflar ekan, arab zaminida ham ana shunday usuli jadidiya maktablari ochish zarurligini ta’kidlaydi. Shu jihatdan u turk dunyosi, chunonchi, o‘zbek jadidlari bilan hamfikr edi.

Jurji Zaydon o‘limidan so‘ng qadr topgan mutaffakirlardan biridir. Uning badiiy ijodi, ilmiy faoliyati haqida ko‘plab asarlar yozilgan, ilmiy tadqiqotlar yaratilgan, tarixiy asarlari asosida badiiy va hujjatli filmlar suratga olingan. O‘zbekiston olimlari orasida zaydonshunos olima, filologiya fanlari doktori Dilafro‘z Muhiddinovaning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir. Ammo shunga qaramay, ushbu adib va olimning boy merosi biz uchun deyarli ochilmagan qo‘riq bo‘lib turibdi.

Jadidlik harakatining yetakchilaridan hisoblangan qrim-tatar ziyolilari Jurji Zaydon ijodiga katta ehtirom bilan qarardi. So‘fizoda, Hamza, Fitrat kabi o‘zbek ma’rifatparvarlari o‘tgan asr boshlarida xorijiy mamlakatlarga qilgan safarlari chog‘ida qrim-tatar jadidlari bilan yaqin aloqada bo‘lgani ma’lum. O‘z vaqtida Abdulla Qodiriy ham Jurji Zaydonning romanlari bilan tanishadi. Uning olgan sabog‘i qanday bebaho samara bergani haqida esa so‘zlash shart emas. Abdulla Qodiriy qahramonlarning taqdiri va xarakterini kengroq ochishga e’tibor qaratadi. Shu bois ham “O‘tkan kunlar” asari haligacha kitobxonlar tomonidan sevib o‘qilmoqda.

Olloyor BEGALIYEV

TILBILIM

ISMALOQ



– Isming nima?
– Ismaloq.
– Oting nima?
– Otquloq.
(Bolalikdagi aytishuvlardan)

Bolalikda bahorning sevimli taomlaridan biri ismaloq somsa edi. 70-yillarda qishloqda qisqa muddatli ismaloq terish mavsumi bo‘lar, o‘sha davrda hovlidan, dalalardan biz – bolalar ismaloq terardik, mavsum o‘tgach, barglari qotgan ismaloqdan somsa qilib bo‘lmasdi. Albatta, multfilm qahramoni dengizchi Papayday ismaloqxo‘r bo‘lmaganmiz, lekin erta bahorning “ilik uzildi” kunlarida vitaminga boy ismaloq organizm uchun ayni muddao bo‘lgan.

Xo‘sh, nega bu ko‘katning nomi – ismaloq?

Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit-turk” asarida “ismaloq” so‘zi uchramaydi, ammo bir o‘rinda “devon”da: “bustuli – Rum ismalog‘i, buni yeyiladi”, deb izohlangan (DLT, 1-t., 421-bet. T.1960). Demak, qadimgi turk tillarida ismaloqning bir turiga nisbatan “bustuli” so‘zi qo‘llanilgan.

“Ismaloq” ingliz tilida “spinach”, fransuz tilida “épinard”(talaffuzi: epinag‘), rus tilida “shpinat” deyiladi. Fransuz tilining izohli lug‘ati “Le petit Robert”da yozilishicha, “épinard” eski fransuz tilida (XIII asr): “espinarde”, “espinache”, “espinoch” shakllarida yozilgan. “The English etymological dictionary”ga ko‘ra, inglizcha “spinach” aynan o‘sha eski fransuzcha “espinache”ga, “espinache” esa kataloncha “espinac”ga (talaffuzi: “espinak”, ispancha: “espinaca”), “espinac” – Andalusiya arablari tilidagi “isbinâkh”ga, “isbinâkh” esa, o‘z navbatida, forscha “isfanoj” ga borib taqaladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, XI asrda bu ko‘kat turi Andalusiyaga (Musulmon Ispaniyasi, hozirgi Ispaniya janubidagi hudud) arablar tomonidan olib kelingan va XII asrda yashagan andalusiyalik olim Ibn al-Avom tomonidan u “sabzavotlarning sardori” (“rais ul-buqul”) deb ta’riflangan ekan. Arablar uni “al-isfanaax” yoki “as-sabanix” deb atagan. Ammo arab tilida to‘rt harfli fe’llar yo‘q, to‘rt va undan ko‘p harfli so‘zlar arab tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan hisoblanadi. “As-sabanix” ham to‘rt harfli bo‘lib, bu ham uning arabcha emas, boshqa tildan o‘zlashganini tasdiqlaydi. Fransuzcha “Larousse” lug‘atida ismaloqning asil kelib chiqishi Markaziy Osiyo ekanligi, bu o‘simlik dastlab Eron va unga qo‘shni hududlarda madaniylashtirilgani aytiladi.

Rossiyaga esa bu ko‘kat ancha kech – XVIII asrda kirib keladi. Dastlab u rus zodagonlari dasturxonida Olmoniyadan kelgan tanqis taom sifatida paydo bo‘lib, nomi ham olmoncha – “shpinat” (“spinat”) deyiladi. “Etimologicheskiy slovar russkogo yazika” lug‘ati muallifi M.Fasmerga ko‘ra, olmoncha “spinat” o‘z navbatida o‘rta lotin tilidagi “srīnaseus” so‘zidan kelib chiqqan. “Lotincha “srīnaseus” fors tilidan o‘zlashgan, deb ko‘p marta izohlangan” (“srīnaseus, kotoroye neodnokratno tolkovali kak preobrazovaniye pers. slova”), – deb yozadi M.Fasmer. Ya’ni, M.Fasmer va boshqa ba’zi tilshunoslar lotincha “srīnaseus”ning forscha “isfanoj”dan o‘zlashganiga biroz shubha bilan qaraydi. Ismaloqning Ovro‘podagi nomlari forscha emas, balki lotincha “spina” (umurtqa pog‘onasi, orqa) o‘zagiga borib taqaladi, degan qarash ham mavjud (Lotincha ilmiy nomlanishi: “spinacia oleracea”). Ammo ko‘pchilik mutaxassislar o‘rta lotin tiliga ham bu so‘z forschadan o‘tgan, faqat Ispaniya orqali emas, X asrda O‘rta Yer dengizi hududi xalqlari, xususan, arablar (sarasinlar) va ovro‘poliklar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘rta lotin tiliga o‘zlashgan deb hisoblaydi.

Hozirgi tojik tilida ismaloq – “ispanoq, ispanog‘, isfanoҷ” shakllarida yoziladi va talaffuz qilinadi (Russko-tadjikskiy slovar. Moskva. 1985.1221-bet). Tojikistonlik tadqiqotchi G.Mirsaminova forscha “isfanoj”ning arxaik ko‘rinishi “isfanoq” bo‘lgan bo‘lishi mumkin, deb yozadi. Ammo eski fors tilida “q” tovushi bo‘lmaganligi, “q” tovushi mavjud so‘zlar fors tiliga arab yo turk tillaridan o‘zlashgan so‘zlar bo‘lganligi uchun bu fikrni qo‘llab bo‘lmaydi, ehtimol, bu so‘zning arxaik ko‘rinishida “isfanoq”dagi “q” o‘rnida “-k”, “-g‘”, “-x” tovushlariga yaqin tovush bo‘lgandir. Ismaloqning forscha shakliga sanskritcha shu ma’nodagi “paalak”ning aloqasi bor-yo‘qligi haqida ma’lumot yo‘q.

Ismaloqning forscha so‘z ekanligini quvvatlovchi yana bir ma’lumot – xitoy tilida qadimdan uning “fors ko‘kati” deb aytilishi hamdir.

Afsuski, “ismaloq” so‘zi Navoiy asarlarida yoki “Boburnoma”da uchramaydi. Eng ko‘hna turk tili lug‘atlaridan biri bo‘lmish “Kodeks Kumanikus”da “ismaloq” – “ispanaq” shaklida qayd etilgan. Shu o‘rinda kumanlar haqida ikki og‘iz so‘z: ma’lumki, kumanlar deb o‘rta asrlarda ovro‘poliklar tomonidan Qrim yarim orolida yashagan qipchoqlar, umuman, turkiy qavmlar, bugungi Qrim tatarlari ajdodlariga nisbatan aytilgan. “Kodeks Kumanikus”, ya’ni “Kuman tili lug‘ati” XIV asrda kumanlarning tilini o‘rganish maqsadida italyan va olmon missionerlari tomonidan tuzilgan. Kuman tilidagi “ispanaq” usmonli turkchasidagi “ispanak” va ko‘pgina bolqon xalqlari tillaridagi nomlar bilan mushtarak (bulgorcha: “spanak”; serb: spanaћ; alban: spinaq va hk.).

Alqissa, ushbu so‘z qaysi tilda ilk bor paydo bo‘lganligidan qat’i nazar, yuqorida ko‘rganimizdek, etimologik jihatdan bir manbaga borib taqaladi. Asrlardan buyon ota-bobolarimiz bu ko‘katni “ismaloq” deb biladi, tilimizga bu nom shu shaklda o‘rnashgan. Fransuzcha lug‘atda ham qayd etilganidek, bu ko‘katning ham vatani Markaziy Osiyo, demakki, uning ilk nomi ham shu hududlarda paydo bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

Abduvohid HAYIT

HIKOYA

QBLIVION





Nozima HABIBULLAYEVA

Osmon ko‘m-ko‘k, yer yam-yashil edi. Bahorgi quyosh nurlari dam maysalar uzra yastanar, dam ariqdagi suvda jilvalanardi. Yer-u ko‘k orasida erka shabboda sarsari kezardi. Yaydoq daladagi yakka soyabon – marvartak tut ostida Saida yelkasiga skripka tirab mashq qilyapti. U yerga uzangan tut shoxlariga qistirilgan nota varaqlariga tez-tez ko‘z tashlagancha, o‘zini borliq sahnasidagi ijrochi-yu, tepada erinibgina suzayotgan laxtak bulutlardan tortib, “valfajr” aytib yer bag‘irlab charx urayotgan qaldirg‘ochlarni ham injiq musiqashunos hakamlardek his qilardi. Har kamon tortganida yuragi qattiqroq gupullab, ritmni aniq his qilishiga ko‘maklashadi.

– Saida, hooy, Saida! Ovqatga kel, qizim...

Onasining ovozidan xayollari tarqadi-yu, notalarini yig‘ib, uyiga yo‘l oldi.

Xontaxta atrofida jam bo‘lishgan payt katta singlisi so‘rab qoldi:

– Opa, konsertda, televizorda ko‘rsatishgandek, tomoshabin ko‘p bo‘ladimi?

– Hm...

– Sizga ham gul berishadimi?

Saida qimtinibgina otasiga qaradi:

– Borasizlar-a, dada?

– Ovqatlaringni yenglar! – cho‘rt kesdi Mirpo‘lat.

Otasining tajangligi tutsa, bolalar mung‘ayib qoladi. Ularning bu mahzun ahvoli shom paytidagi nomozshomgulni eslatardi. Sadbar muztar bolasiga termilib, so‘zga og‘iz juftladi-yu, lekin shashtidan qaytdi. Tinchlik kerak!.. Shaharda o‘qitayotganiga ham shukr. To‘nini teskari kiyib olsa, nima qiladi? Lekin bolasining ko‘ngli-chi? “Otasi bormasa, o‘zim boraman”, – deya ko‘ngliga tugdi Sadbar.

Kunlar Saidaning notalaridek varaqlandi. Indinga konsert. Sadbar bir tugunda o‘zi yopgan non, mayiz-turshak, boshqasida mevacheva, tag‘in... ko‘ylak bilan yo‘lga tushdi. Egnida qachonlardir Nappi chevarga tiktirgan sariq gulli, sabzarang ko‘ylagi, boshida esa harir ro‘moli-yu bir dunyo chuvalgan o‘ylari. Ko‘zlarida hayajon, yonoqlarida tonggi ufqday qizillik. Faqat bu jozibani barvaqt tushgan ajinlar buzib turibdi. Ular g‘am-anduh ildizi, og‘ir turmush xaritasidir balki. U avtobusdan tashqariga qarab ketarkan, oynada bolalik xotiralari akslangandek bo‘ldi.

* * *

...Yuqori sinfligida kelgan yangi musiqa o‘qituvchisi – Zebo opa juda jonkuyar chiqib qoldi. Shu vaqtgacha maktab o‘quvchilari torlari uzilgan eski rubobdan boshqa cholg‘u ko‘rmagan edi. Yangi o‘qituvchi esa tuman va viloyatdagi kazo-kazo idoralarga qatnab, bir juft tob tashlagan dutor, qasqoni qiyrixon doira yana uringanroq skripka va... yaraqlagan pianino undirib keldi. Bu bilan ham ko‘ngli to‘lmay, darsdan keyin havaskorlik to‘garagi ochdi. Saralab olingan o‘quvchilar orasida Sadbar ham bor edi. Sinfdoshlari bilan musiqa xonasiga kirib, botinib-botinmay oq-qora klavishlarga nozik barmoqlarini tekkizar ekan, taralgan sokin ohang uni olis-olislarga, ertaknamo go‘zal ma’volarga olib ketardi. Zebo muallim: “Qoyil, g‘irt qishloqi qizda shuncha nazokat-u shuncha nafosat. Bir yozuvchi aytganidek, sart bolasi – fransuz”, deb hazil aralash hayratini yashirmasdi. Kun sayin yursa ham, tursa ham Sadbarning xayolidan musiqa arimas, o‘zi bir butun tirik musiqaga aylanib borardi. Maktab zinalarida – klavishlarni, ariqlarda – musiqiy jilvani, simyog‘och simlarida – nota chiziqlarini, qaldirg‘ochlarda musiqiy belgilarni ko‘rib, bu kashfiyotlaridan o‘zi ham quvonib ketardi. Bora-bora uning bu parishonligi-yu to‘garakka bog‘lanib qolgani ota-onasini xavotirga soldi. Biroq na ota, na ona bir marta ham maktabga borib, qizining mashqini eshitib ko‘rmadi. Holbuki, Sadbar allaqachon bu cholg‘u bilan til topishgan, binoyidek qo‘li kelib qolgandi.

– Yig‘ishtir ting‘ir-ting‘iringni! – dedi bir kun otasi vajohat bilan.

– U ting‘irlamaydi, u pianino, dada... – qo‘rqa-pisa javob qildi Sadbar.

– E, nima farqi bor! Undan ko‘ra, ana, sigirga qara! Sutidan baraka ketdi jonivorni. Butun oilani rizqini qiyib... Bir to‘g‘ram non beryaptimi o‘sha piyaninang? Shuncha vaqt “xo‘p” deb keldim, yetar endi erkalik! He o‘rgildim...

– Dada, ustozim aytdiki....

– Buni men – otang aytdim!

– Uqdim... – Sadbarning gapi og‘zida qoldi.

Shundan so‘ng maktabga ham jo‘natmay qo‘yishdi. Kecha uzun barmoqlar orasidan nafis kuy oqsa, endi sigir yelinidan tizillab iliq sut oqardi.

Bir kuni uni Zebo opa qidirib keldi. Yarmi sutga to‘lgan paqirni chetga qo‘yib, ustozi sari chopgan qizga o‘tin yorayotgan otasi o‘girilib qaradi. Zebo opa Mirpo‘lat akaga Sadbarning o‘qishidan so‘z ochdi.

– Qizingiz ishonganim, yaqinda shaharda tanlov bo‘ladi, unga Sadbarni olib boraman, ko‘z qorachig‘idek asrayman, – dedi...

– Qiz bolaga pishirib qo‘yiptimi shaharma-shahar sang‘ishni? – dedi otasi chetga qaragancha qovog‘ini uyib.

– Tanlovda yutib chiqsa, institutga imtihonsiz kiradi, yaxshi-ku?

– Yana qanaqa o‘qish? Xat-savodi chiqdi, yetar. Jaa indamasa, qanday yashashini ham o‘rgatarsiz? Siz dutoringizni chaling. Qolganiga esa aralashmang. Bola – bizniki. Halizamon uzatamiz, deb turibman.

Sadbar otasining bu gapidan dong qotib qoldi. Zebo opa esa battar qat’iyat bilan:

– Xo‘p, tanlov haqida boshqa gapim yo‘q. Ammo qizingiz hali maktab o‘quvchisi. Uni uyga qamab o‘tirolmaysiz. Bunga qonun yo‘l bermaydi, – dedi.

Mulzam tortgan ota qo‘lidagi boltani to‘nkaga jahl bilan urdi-yu, suhbatga nuqta qo‘ydi.

* * *

Bekatda to‘xtagan avtobusning tormoz ovozi oynadagi xotira tasvirini tarqatib yubordi...

– Siz ham savdoga ketyapsizmi? – dabdurustdan so‘radi ro‘parasiga kelib o‘tirgan to‘lagina xotin.

– Yo‘q, qizimni ko‘rgani, – javob berdi Sadbar.

– Haa, qizingizni shaharga uzatganmisiz? Qandoq yaxshi!

– Qizim hali yosh, San’at institutida o‘qiydi. Ertaga konsertda chiqadi skripka chalib, – g‘urur bilan qoshlarini uchirdi Sadbar.

– Voy, San’at institutida dedingizmi? Tavba-a. Artis bo‘ladimi keyin? Qanday erga berasiz? – dunyo tashvishi boshiga tushganday vahima ko‘tardi “g‘amxo‘r” xotin.

– Qiziqmisiz, hayot faqat erga tegishmi? Avval o‘zini topsin, yo‘lini topsin... Shunga yarasha kuyov ham topilar...

* * *

Saida institutga yaqin joyda guruhdosh dugonalari bilan ijarada turardi. Onasini quvonib qarshiladi, birga o‘tirib ovqatlanishdi. Sadbar yodiga bir narsa tushganday, shoshib o‘rnidan qo‘zg‘aldi-da, tugundan nimpushti, chiroyli ko‘ylak oldi. Bu sepidagi o‘zi eng yaxshi ko‘rgan, Zebo opa sovg‘a qilgan ko‘ylak edi.

– Senga opkeldim, qizim. Sahnaga kiyib chiqasan. Bir martagina kiyilgan, xolos, keyin huzurini sandiq ko‘rgan. Qani, bir kiyib ko‘r-chi!

– Aya, bunaqa ko‘ylaklar modadan qolgan-ku... Ustimdan kulishadi, axir! Undan ko‘ra, ertaga bozordan yangi ko‘ylak olaylik.

– Mayli-yu, lekin pul qayoqda? – ma’yus tortdi Sadbar.

– Ilojini qilaylik, aya. Ijara pulini hali to‘lamaganman. Shunga opkelib tursak, keyin dadamdan...

– Dadang qayoqdan berardi, qarzga botib yotibdi-ku... Mayli, Hoshim magazinchiga sut-qatiq berganman, shuning pulini jo‘natib yuborarman unda.

O‘zida yo‘q quvongan Saida onasini o‘pdida, shoshib darsga jo‘nadi.

Ona tek o‘tirarmidi, idish-tovoq yuvdi, xona supurdi, qizlar kelishiga ovqat pishirdi. Qo‘li bo‘shab, zerikdi. Chiqib podyezd zinalarini arta boshladi. Maktab zinalarini klavishga o‘xshatib, shodon sakrab yurgan paytlari esga tushdi. U hozir uy zinalarini emas, bolalikdagi pianino changini artayotgandek edi.

* * *

Sadbar o‘shanda otasining qahridan ilk bor qo‘rqmadi. Zebo opa tufayli maktabga qaytgach, tanlov kuni, otasidan so‘ramay, shaharga ketdi. Ishtirokchilar navbati Sadbarning sochidek uzun edi. Nihoyat, u Shopenning “Ekspromt”ini ijro qildi. Qarsaklar uzoq davom etdi, butun zal dam uning husni, dam iste’dodiga tahsin o‘qirdi. Sadbar esa Zebo opa sovg‘a qilgan uzun nimpushti ko‘ylagini barmoq uchida yengil chimchilab ta’zim qildi-yu, tashqariga shoshildi. Uyda uni ayovsiz hivich azobi kutardi. Bundan ham alamlisi tanlovda g‘olibligi xabaridan oldin ko‘ngilsiz “yor-yor” eshitgani bo‘ldi...

Sadbarning xaridori ko‘p edi. Otasi “Qo‘li moy – ro‘zg‘ori moy” deb moshina ustasi Mirpo‘latga uzatdi. Sadbar birin-ketin to‘rtta qiz tug‘di. Eri o‘g‘il tug‘mading deb uni goh-goh kaltaklardi. Bir kuni qo‘shni qishloqlik hamshiradan orttirgan o‘g‘ilchasini ko‘tarib keldi. “O‘g‘iltug‘ar” xotinni jazmani bilan tutib olganmish. Butun qishloqqa duv-duv gap bo‘ldi. Sadbar go‘dakni bag‘riga bosib yig‘ladi, kiyimchalarini dorga osib yig‘ladi. O‘z bolalari qatori parvarishladi. O‘g‘ilchaning “Ona” deb tili chiqdi. Endi Mirpo‘latning qahri ancha bosilgandi.

O‘tmishiga sho‘ng‘ib ketgan Sadbar qizi chaqirganini birdaniga eshitmadi, u qo‘lidan tutgandagina o‘ziga keldi:

– Aya, qiziqmisiz? Butun podyezdni yuvib chiqdingizmi? Ko‘rganlar nima deydi. Yuring uyga.

Ertasiga bozordan Saidaga yangi ko‘ylak olishdi. Qizi har qancha qistamasin, o‘ziga bitta ro‘mol olishga ham ko‘nmadi. Kechga yaqin konsertga jo‘nashar ekan:

– Chaladigan asaringni oti nimaydi? – deb so‘radi Sadbar.

– “Oblivion”, Astor Pyassollaniki.

– “Abli”... Nima degani u?

– “Unutilgan” degani. Asl ma’nosi shunday. Tag‘in shunday nomdagi noyob gul ham bor. Faqat allaqaysi tog‘dagi g‘orda o‘sadi. Quyoshni umuman ko‘rmas emish-u, o‘zidan zaif, nafis kuy taratarmish. Kompozitor bu asarga shu ikki ma’noni ham singdirgan...

Sadbar qizi aytgan so‘zlar mag‘zini chaqarkan, kuyni tezroq eshitgisi keldi. Konsert boshlanishidan darak berib, qo‘ng‘iroq chalindi. Simfonik orkestrning haybati-yu zalning mahobati Sadbarni entiktirib qo‘ygandi. Ana, qizini e’lon qilishyapti:

– “Oblivion”. Ijro etadi: simfonik orkestr hamda yakkaxon skripkada Turdiyeva Saida Mirpo‘lat qizi!”

Qizidan ham ko‘proq hayajon bosgan onaning endi butun vujudi quloqqa aylangan edi.

Mahzun musiqa sokin taralarkan, asta-sekin uning yuragiga sim-sim og‘riqlar, allaqanday yoqimli va yorug‘ iztirob quyila boshladi. Kuy notama-nota har bir hujayrasigacha uyg‘otar, tomirida oqqan alanga qorachig‘ida yallig‘lanardi. U musiqa qachon tugaganini sezmadi ham.

Bir lahzalik mo‘rt sukunatni qarsaklar ovozi buzdi, Saida nogoh cho‘chib, onasiga qaradi. Sadbar ro‘molining uchini labiga bosib o‘tirardi...

* * *

Ertasiga qishloqqa qaytishdi. Qarindosh-urug‘ to‘plandi. Suhbat sigir-buzoq, qozon-tovoq, tandir-o‘choqdan... Saidaga sovchilar kelayotganidan ham gap ochildi. Qosh uchirishlar, pichir-pichirlar, ilmoqli luqmalar bo‘ldi. Talaba qizning katta sahnaga chiqqani, xorijiy tanlovlarda o‘rinlar olayotgani, o‘qishni bitirmasidan ishga chaqirishayotgani haqida esa lom-mim deyilmadi. Ammo ona o‘zida yo‘q xursand edi.

Mehmonlar tarqab bo‘lgach, Saida hovlida kuymalanib yurarkan, qulog‘iga skripka tovushi eshitilgandek bo‘ldi. Nuqul shunaqa. Qishloqqa keldi deguncha, qarindosh-u qo‘shni bolalar skripkani chalib ko‘rsam deydi. Shunda chaqalog‘i begona qo‘lga tushgan onadek, qo‘llaridan skripkani yulqib oladi. Bu gal ham kimdir, ko‘zni shamg‘alat qilib, skripkaga ozor beryapti. U shunday xayol bilan xonasiga chopdi. Qarasa...

Sadbar ko‘zlarini yumib olgancha, uzuq-yuluq xotirasida qolgan o‘sha kuyni, “Oblivion”ni chalmoqchi bo‘lardi. Xonada ikkovidan boshqa hech kim yo‘q. Ikkisi ham g‘ira-shira qorong‘ilik qa’rida. Sadbar shu kuy orqali butun hayotini chizib berayotgandek hazin nola chekardi. Bolaligi, orzulari, hivich azobi... Shu joyga kelganida skripka kamoni birdan torlar uzra hivichday silkinardi. U o‘z qismati ustidan achchiq kulgancha, g‘am-alamlari boshini kamon bilan bir-bir kesardi go‘yo. Ro‘zg‘or, xiyonat, yo‘qchilik... G‘or, zulmat, gul... Kuy yangrarkan, goh uning ko‘zlaridan, goh g‘orning ichkarisidan to‘kilgan tomchilar kuyga qo‘shilib ketardi. Simillab turgan bu og‘riqni qizining hadik to‘la ovozi to‘xtatdi:

– Ona!..

SHE’RIYAT

Qo‘ynimda maktubing saqlab yuribman



Jamoliddin BADALOV

Menglixon qissasi

(Maxtumqulidan ilhomlanib)

G‘aribkim, Maxtumquli,
Xiyla bilan yengdi Xon.
Yulib ketdilar gulin,
Bir guldurki, Menglixon.
Dedim: – Mohitobonim,
Dedi: – Go‘yo Menglixon.

Ko‘zasi qalqib-qalqib,
Daryoda oqib ketdi.
Menglixonni yuz otliq
Saroyga olib ketdi.
Dedim: – Qo‘yding armonga,
Dedi: – Ko‘ngildur vayron.

Chirillab qoldi qizlar,
Na dodga ulgurdilar.
Sho‘rlik yigitni izlab,
Qishloqqa yugurdilar.
Dedim: – Tovus na joydan?
Dedi: – Joyi Hindiston.

Manglaydagi bitikda,
Har bandaning a’moli.
Keltirdilar yigitga
Menglixonning ro‘ymolin.
Dedim: – Undan ber manga,
Dedi: – Qiladur bejon.

To‘lgani shu paymona,
Ro‘yo desa rostdirkim.
Mushtin siqib, ro‘ymolni
Lablariga bosdi jim.
Dedim: – Yuzda hollarmu?
Dedi: – Yuzda gullar hey!

Dedim: – Bu ne sarvidur?
Dedi: – Nozik bellar hey!

Qattiq silkindi sahro,
Amudaryo to‘lg‘ondi.
Ko‘rib qo‘y, beor dunyo,
Yig‘ladi mard o‘g‘loning!
Dedim: – O‘larman endi,
Dedi: – Qolarsan omon.

Judo bo‘lib yoridan,
Elkezar oshiq qoldi.
Hasratidan, dog‘idan
Bir mungli qo‘shiq qoldi.
“Qo‘llarimni qayirding,
Zolim ekansan dunyo!
Gul yorimdan ayirding,
Xoin ekansan dunyo!”
Dedim: – Sendan ketarman
Dedi: – Ketsang bor omon!

Bu dunyoning koriga,
Bardosh berar jonim yo‘q.
Menglixonni holidan
So‘z aytgali holim yo‘q.
Dedim: – Bu ne zamondur?
Dedi: – Bu ham tush o‘lar.

Hijroningda o‘ldim-ay!
Yoshim artsam, yengim qon.
Kimga cho‘ri bo‘lding-ay!
Mungli xonim, Menglixon!
Dedim: – Ey Maxtumquli!
Dedi: – Ko‘zlar yosh o‘lar!!!

Musofir

Qishloqda
sahardan to kechga dovur
onam shosupada ko‘rpacha qovir.
Yig‘lab ham oladi:
“Bolam... musofir...
O‘risga ketgan” deb.

G‘animlar har qanday pastlikka qodir,
baridan do‘stlarning dashnomi og‘ir.
Kuldilar:
“Muhabbat balosi oxir
boshiga yetgan” deb.

Oqshom oyga boqib, surdingmi xayol?
Ey, qizlardek lobar, ma’suma ayol.
Ko‘ngilsiz turmushga ko‘nding ehtimol:
“Taqdir shu ekan” deb.

Men bunda o‘zimni qarg‘ab yuribman,
sovuq nafaslarda yaxlab yuribman.
Qo‘ynimda maktubing saqlab yuribman
barmog‘ing tekkan deb.

* * *

Bu kunlar,
Bu umr,
Bu ko‘hna dunyo,
Sahrolar lovullar, chayqalar ummon.
Tomchiman, zarraman, lahzaman, ammo
Bo‘zchi mokisiday tinmayman, xolos.

Bu qanday holatki, ko‘nib bo‘lmaydi,
Qochib ham, chidab ham, o‘lib bo‘lmaydi,
Nimadir...
Ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi,
Faqat tovushlarni ilg‘ayman, xolos.

Xotira alafga o‘xshagan narsa,
Shuncha chopgan bilan koshki kamaysa.
Bilaman, manzilni yo‘qotmagansan...
Qachon qaytishingni bilmayman, xolos.

Sahrolar ummonga g‘arq bo‘lar balki,
Ummonlar sahroga mahv bo‘lar balki,
Dunyolar ko‘ngilga jam bo‘lar balki,
Faqat men ko‘nglingga sig‘mayman, xolos.

* * *

Eshikni yopib ket.
Buyumlar,
Ergashib ketingdan chiqmasin.
Men seni hech qachon unutmam,
Sen unut.
Esingdan chiqmasin.

* * *

Kelgunimcha yo‘l qarab,
Uyqusi o‘chgan onam.
Yarim tunmi, yo sahar,
Darvoza ochgan onam.
O‘lim – qisqa judolik,
Javdirab jannatda ham,
Bolam qani Xudo deb,
Darvoza ochgan onam.



TARMOQLARDA NIMA GAP?



HAR DAMIGA SHUKR ETING

Shayx Sa’diyning “Guliston” asarida shunday deyiladi: “Men hech qachon davr jabr-jafosidan shikoyat qilmagan edim, lekin bir marta nolidim. O‘shanda oyoqyalang qolib, kovush sotib olishga ham qodir emasdim. Qattiq o‘ksinib yurgan kunlarimning birida peshin namozini o‘qish uchun Kufa shahridagi Jome’ masjidiga kirdim va u yerda oyoqlari yo‘q bir odamning tahorat olayotganiga ko‘zim tushdi. U shu holda lablari pichirlab sajda qilardi. Shunda men, noshukr banda, o‘zimdan hayo qildim, shukr qilishim lozimligini tushunganim holda kovushsizligimga ham sabr etdim”.

Biz-chi, shukr qilishni bilamizmi? Inson uchun moddiy emas, ma’naviy boylik muhimligi, ruhiy poklik saodatligi, salomatliging bo‘lmasa hisobsiz boylik ham arzimasligi, farzandsiz dunyo shodliklari tatimasligi, qo‘ying-ki, hayotimizning og‘riqli nuqtalari insoniylik mezonlarining asosi bo‘lmish shukr qilishni bilmasligimizda emasmi? Dunyoning turli hududlarida sodir etilayotgan halokatlar, begunoh insonlarning to‘kilayotgan qonlari nahotki bizga shukrni eslatmasa... Kecha millioner bo‘lgan odam bugun bir burda nonga zorligi, kecha qasrda yashayotgan kishi bir onda boshpanasiz qolgani, kecha olamlarga sig‘mayotgan yonimizdagi odamning bir lahzada yorug‘ dunyoni tark etishi ham ibrat bo‘lmasa...

Shukr qilaylik, azizlar, har damiga shukr qilaylik, vatan bag‘ridamiz, yurtimiz tinch, xonadonlarimiz osoyishta, oilamiz baxtiyor, farzandlarimiz salomat, sog‘inguvchi-sog‘intirguvchi yaqinlarimiz bor. Demak, noshukrlik qilishga, arzimagan qiyinchiliklardan nolishga ma’naviy haqqimiz yo‘q.

Ey, do‘st, ko‘zlarimiz tuproqqa to‘lmasidan oldin ko‘ngillarimiz shukrga to‘lsin. Zero, umr o‘tkinchidir.

Feruza ORIPOVA
“Facebook”

OG‘RIQ

NAFS YETOVIDAGI ODAM

Mashhur ertakda Zumrad mehnatkashligi, ezgu xislatlari mukofoti o‘laroq uyiga xazina-sandiq olib qaytadi. Bu sandiq – baxt-saodat, to‘kin-sochinlik timsoli, azob-uqubatlardan xalos bo‘lish ramzidir. Qahramon barcha qiyinchiliklarni yengib, boshiga tushgan savdolarga sabr qilib yorug‘ kunlarga yetib keladi. Hayotda-chi, hayotda ham Zumradning sandig‘ini topish mumkinmi? Aksincha bo‘lsa-chi? Topdi ham deylik, lekin bunday farahbaxsh onlar umr bo‘yi davom etadimi? Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, inson nega doim baxtni orzu qiladi? Baxt deganlari qo‘l yetmas darajada olisdami?



Ko‘pincha ko‘cha-ko‘yda norozi qiyofadagi insonlarga duch kelamiz. Erta tongdan haydovchilarning asabiylashib signal chalishlari, besabab baqir-chaqirlar, navbat talashishlar, tund chehralar dilingizni xufton qiladi. Avtobusda ketaturib ham nolishu ta’na-dashnomlar qulog‘ingizga chalinadi. Beixtiyor odamlarning kayfiyati, ularning nimadan noroziligi haqida o‘yga tolasiz.

Kuni kecha poytaxtimizdagi eng nufuzli avtosalonlardan birida kichik ijtimoiy so‘rov o‘tkazdik. Orzusidagi ulovni sotib olganlar dunyodagi eng baxtli odamlar bo‘lsa kerak, deb o‘ylashingiz aniq. Biroq yuz kishidan sakson to‘rttasi o‘z turmushidan to‘la qoniqmasligini bayon qildi. Aksariyati esa tajangligining aniq sababini aytishga so‘z topolmay, “Ko‘rmayapsizmi, zamon shunaqa bo‘p ketgan”, deb qo‘l siltadi.

To‘g‘ri, baxtni har kim o‘zicha tushunadi. Ko‘pchilik o‘zida yo‘q narsani baxt deb hisoblaydi. Kim uchundir bu tushuncha tansihatlikni anglatsa, kimdir buni boylik yoki tinchlik-xotirjamlik, farzandlar kamolida deb biladi. Faylasuflar baxt kishining o‘zini yaxshi his qilishi, hayotdan bahra olishi, zavqlanishi bilan bog‘liq, baxtsizlik esa o‘zini yomon his qilishi va ko‘p narsani orzu qilishning oqibati, deya ta’riflashadi. BMTning jahon mamlakatlari farovonligi darajasini o‘rganuvchi “The World Happiness Report” markazi aholining daromadi, mamlakat ichki yalpi mahsulotining jon boshiga ulushi, ijtimoiy himoya, turmush darajasi, tibbiyot rivoji, aholining hayotdan qanchalik qoniqishi kabi omillarni tahlil qilish asosida bu borada muayyan xulosalar chiqaradi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Butan, Birlashgan Arab Amirliklari, Venesuela, Ekvador va Shotlandiyada Baxt vazirligi tashkil qilingan. Xitoyda 2011-yil o‘n oltita ko‘rsatkich asosida Milliy baxtlilik indeksi joriy qilingan. Indeksda ilmiy tadqiqotlar, ta’lim, madaniyat va sport sohalaridagi xarajatlar inobatga olinadi. Bundan tashqari, ushbu o‘lchov me’yorlariga har bir insonga xonadondagi tegishli maydon ulushi, har ming nafar fuqaroga nechta shifokor to‘g‘ri kelishi ham inobatga olinadi. Gellap jamoatchilik fikrini o‘rganish instituti esa xodimlar o‘zini baxtsiz his qilganida ularning ish unumdorligi, soliqlar to‘lovi pasayishi va sog‘liqni tiklash xarajatlari ortishi hisobiga AQSh iqtisodiyoti yiliga 500 milliard dollar zarar ko‘rishi haqida ma’lumot beradi.

Mol-davlat baxtlilik darajasini ko‘rsatadi deb hisoblovchilar ham bor. AQShning Purdue universiteti olimlari dunyo bo‘yicha insonlar o‘zini baxtli his etishi uchun qancha mablag‘ kerakligi borasida tadqiqotlar o‘tkazishdi. Xulosalarga ko‘ra, o‘zbekistonliklar farovon yashashi uchun yiliga 21 960 dollardan ko‘proq mablag‘ topishlari kerak ekan. Xo‘sh, insonning puli ko‘p bo‘lsa, u hayotdan to‘la-to‘kis mamnun bo‘ladimi?

So‘rovimiz ishtirokchilarining ayrim izohlari e’tiborimizni tortdi. Ma’lumki, avtomobil sotib olishga qurbi yetadiganlar kambag‘al hisoblanmaydi. Ko‘pchilik hayotida sodir bo‘layotgan ko‘ngilxiraliklarga daromadining kamligi, uyining torligi, to‘y qilolmayotgani, qarzga botgani, farzandlariga so‘nggi rusumdagi ulov olib berolmayotgani va oilaviy nizolarni sabab qilib ko‘rsatgan. Aslida baxt insonda hech narsaga ehtiyoj qolmasligida bo‘lmaganidek, baxtsizlik ham orzu-havasning bepoyonligida emas.

Ruhshunoslarning fikricha, inson qanchalik farovon yashasa, tashvishlar ham shunchalik ortib boradi. Chunki odamlar o‘zlarini boshqalar bilan solishtira boshlaydi. Ko‘p daromad topish ishga yanada mas’uliyat bilan yondashishni talab etadi. Natijada dam olishga vaqt qolmaydi. Demak, baxtning siri faqat pulda emas. Boriga qanoat qilmay, shukrona keltirmay turib to‘kislikni his etib bo‘lmaydi. Faqat moddiy boylik bilan ruh va qalb xotirjamligiga erishib bo‘lmaydi.

Sharqona dunyoqarashda baxt haqidagi fikrlar G‘arbdagi qarashlardan tubdan farq qiladi. Dalay Lama aqidasiga ko‘ra, baxt ikki tomonlamadir: “Birinchisi, tashqi – yaxshi uy-joy, po‘rim kiyim-kechak, sadoqatli do‘stlar bilan ma’lum darajada hayotdan qoniqish his qilish mumkin. Ikkinchisi, ruhiy rivojlanish. Biroq bu ikki yondashuv muqobil emas. Botiniy baxt bo‘lmasa, zohiriysining ham umri qisqa bo‘ladi”. Ruhiy halovatga esa nafsni tarbiya va tazkiya qilib erishiladi. Luqmoni Hakim o‘z o‘g‘liga nafsni anglash haqida shunday ta’lim bergan: “Ey o‘g‘lim! Avvalo nafsingdan ehtiyot bo‘l. Chunki har nafsning bir havosi, nafsoniy istagi bor. Agar nafsga nafsoniy istaklarini bersang, tobora yo‘ldan ozadi va ko‘proq va turfa narsalarni istay boshlaydi. Chaqmoqtoshda olov yashirin bo‘lgani kabi nafsoniy orzular ham qalbda yashirindir; yoqsang porlar, o‘z holiga qo‘yilsa, bekinib turadi”, degan ekan.

Inson o‘z nafsining yetovida ekan, dunyodagi barcha boyliklarni qo‘lga kiritsa ham unga kamlik qiladi, umri armon va taassuf bilan yakun topadi. Muborak hadislarda aytilishicha, “Kimki tongda uyqudan uyg‘onganda oilasi tinch, tani sog‘ va uyida bir kunlik yeguligi bor ekan, bilsinki, unda dunyodagi barcha ne’matlar mujassam”.


Demak, baxt boylikdagina emas, qalbimizdagi halovat, shukr va qanoatdadir. Aslida har bir olayotgan nafasimiz, bu dunyoda borligimiz, kimlargadir kerakligimiz va xalq iborasi bilan aytganda, “shirin tashvishlarimiz” o‘zbekona baxtning nishonasidir.

Muyassar IBROHIMOVA

BONG

BIZNI QIYNAYOTGAN SAVOLLAR

Keyingi yillarda voyaga yetmaganlar, xususan, maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni oshib borayotgani tashvishli hol.



Muammoning ildizini topish va uning oldini olish bo‘yicha qanday ishlar qilinmoqda? Bu savolga javob izlashdan oldin bolalar o‘rtasida qaysi jinoyat turlari ortib borayotganiga doir ma’lumotlarni o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

O‘tgan 2023-yil davomida respublika bo‘yicha maktab o‘quvchilari tomonidan 1502 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, bu 2022-yildagiga nisbatan 288 ta ko‘p. Bu o‘rinda biz jinoyatga qo‘l urgan o‘quvchilar soni emas, aynan jinoyat turi haqida to‘xtalmoqchimiz. Ayrim jinoyatlar bir guruh bolalar tomonidan sodir etilgani nazarda tutilsa, qonunbuzarlar soni ancha ko‘pchilikni tashkil qilgani ma’lum bo‘ladi. Ya’ni, 2023-yilda salkam uch ming (bundan o‘n yil oldin, ya’ni 2014-yilda 918 nafar) o‘smir qonunni buzgan. Demak, bitta jinoyatga taxminan ikki nafar o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Xullas, ahvol biz o‘ylagandan ko‘ra jiddiyroq.

Afsuski, voyaga yetmaganlar o‘rtasida o‘zgalarga og‘ir tan jarohati yetkazish jinoyati 160 taga oshgan. Bu nimani anglatadi? Bolalarning shunchaki do‘pposlashishi yoki urush-janjali oqibatida 324 ta (2022-yilda 164 ta bo‘lgan) shu turdagi jinoyat sodir etilmasa kerak. Yaqinda ijtimoiy tarmoqda bir-ikkita maktab o‘quvchisining yonida pichoq olib yurgani haqida o‘qigandim. Xo‘sh, jinoyat qilgan o‘quvchilarning qanchasi jangarilik va zo‘ravonlik targ‘ib etilgan filmlar ta’sirida shunday ahvolga tushdi ekan? Albatta, ularning aksariyati maktabda emas, undan tashqarida, asosan bo‘sh vaqtida, nosog‘lom muhitda huquqbuzarlik ko‘chasiga kirgan. Tahlillarga ko‘ra, jami jinoyatlarning qariyb uchdan biri kechki soat 17 dan keyin sodir etilgan.

O‘tgan asrning 80-yillarida ilk bor videofilmlar tarqalganda qo‘l janggi to‘garaklari ham ommalashgan edi. O‘shanda o‘g‘il bolalar orasidan ko‘plab zo‘ravonlar yetishib chiqqanini eslash kifoya. Bugunga kelib, o‘sha paytda yashirincha tomosha qilinadigan videofilmlar holva bo‘lib qoldi. Hozir istagan o‘quvchi o‘zining telefonida xorijda ishlab chiqarilgan va axborot xuruji tarzida zo‘ravonlig-u va behayolikni targ‘ib etayotgan filmlarni ko‘rishi mumkin.

O‘tgan yili o‘quvchilar orasida 45 ta nomusga tegish jinoyati sodir etilgan. 2022-yilda 7 ta shunday jinoyatga qo‘l urilganini nazarda tutsak, demak, bir yilning ichida ushbu jinoyat turi 38 taga ko‘paygan, ya’ni 6-7 barobar oshgan. Tasavvur qilish qiyin: hech qachon bunchalik keskin oshish qayd etilmagan bo‘lsa kerak. Internetdagi behayo filmlar endilikda kichik-kichik lavhalar tarzida ishlab chiqilib, dunyoga tarqatilyapti. Kim, qaysi tashkilot buning oldini olishi mumkin? Xorazmda sodir bo‘lgan voqealarni eslab o‘tirmaymiz. Hali mustaqil hayot ostonasidan hatlamagan, oq-qoraning farqiga yetmagan qizlarda nima gunoh? Bu borada qanday amaliy choralar ko‘rildi?

Yana tahlillarga o‘tamiz. O‘quvchilar orasida giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar 15 taga oshgan, ya’ni 10 tadan 25 taga ko‘paygan. Ertaga o‘sha 25 nafar o‘smir o‘z yoniga yana 25 nafar tengdoshini tortmasligiga kim kafolat beradi? Bayramlarda barchamizni bezovta qiladigan oddiygina “paqildoqlar” chegaralarimizdan qanday olib o‘tilayotganini bilmaydigan posbonlarimizning maktab o‘quvchilari orasida tarqalib borayotgan giyohvandlikning yo‘lini to‘sishga qurbi yetadimi? Hozir bunday moddalarning turi yanada ko‘payib boryapti.

Bu o‘quvchilarning qanchasi yoshi kattalarning jinoiy guruhlariga adashib kirib qolgan? Ancha qimmat narxda pullanadigan og‘uni oddiy maktab o‘quvchisi qayerdan topishi mumkin? Deylik, giyohvandlikka aloqador jinoyatlar fosh etilganda o‘quvchilarni shu yo‘lga boshlagan katta yoshdagilar jazosini oldimi? Ular kimlar?

Shuningdek, o‘g‘rilik 36 taga, bezorilik 35 taga ko‘paygan. Achinarlisi, maktab o‘quvchilari tomonidan 6 ta holatda qotillikka qo‘l urilgan. Albatta, bunday afsuslanarli hollar maktabda, mahallada muhokama qilingan, qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilangan. Ammo avvalroq zarur chora-tadbir ko‘rilganida ularning oldi olingan bo‘lardi.

Ayb kimda? O‘quvchilardami, ularning ota-onalaridami? Maktabdami? Muhitdami? Menimcha, barchasida! Ammo ularning qaysi biri bilan qanday tarbiyaviy ishlar olib borishni kim biladi? Faqat targ‘ibot-tashviqot bilan ish bitmaydi.

Endi ayrim savollarga javob izlaymiz.

Birinchidan, hozir o‘quvchilarga huquqiy ta’lim berish qay ahvolda? Darslik kitoblar ta’minoti, o‘qituvchilarning sifat tarkibi, malaka oshirish ko‘rsatkichlari talabga javob beradimi? Qonunni buzsa javobgarlikka tortilishi haqida o‘quvchi qay darajada xabardor? Huquqiy ta’limga qo‘shimcha ravishda boshqa qanday tadbirlar o‘tkaziladi, degan savolga ham tayinli javob topish mushkul. “Siz qonunni bilasizmi?” singari tanlovlarda o‘quvchilarni qamrab olish darajasi ham ko‘ngildagidek emas.

Ikkinchidan, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning oldini olish bo‘yicha ilmiy-pedagogik asoslangan ilg‘or ish tajribalariga yetarli e’tibor qaratilmayapti. Yaqinda yangilik tarzida ko‘tarilgan “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” konsepsiyasi aslida o‘tgan asrning 80-90 yillarida ishlab chiqilgan va uzoq yillar amalda qo‘llanilgan yo‘riqnoma bo‘lib, bugungi davr nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqilishi lozim.

Uchinchidan, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan sport-sog‘lomlashtirish, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, ya’ni “Barkamol avlod” maktablari faoliyatini davr talabiga moslashtirish talab etiladi. Xo‘sh, ularda o‘quvchilar qamrovi necha foiz? Umuman, maktabdagi fan to‘garaklari, sport seksiyalari ham amalda ishlashi kerak. To‘liq ikki navbatda ishlaydigan maktablarda to‘garak o‘tish uchun imkoniyat bormi? Bir narsa deyish qiyin. Bu borada keyingi yillarda moddiy-texnik bazasi mustahkamlangan musiqa va san’at maktablarigina samarali faoliyat ko‘rsatmoqda, deyish mumkin.

Bugun mutaxassislar maktab o‘quvchilarining tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli axborot xurujlari, kattalar orasidagi jinoyatga moyil guruhlar, oilalar, nosog‘lom muhit singari ijtimoiy havflardan o‘quvchilarni saqlashning yangi, samarali usullari ustida jiddiy bosh qotirishi lozim.

Yuqorida aytilgani singari ayrim jinoyat turlarining keskin ortib ketishining tub ildizlari qayerda? Buni Ichki ishlar vazirligi yoki Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi biron ilmiy-tadqiqot muassasasi chuqur tahlil qilib bera oladimi? Aslida shunday tashkilot bormi? Ya’ni masalaga chuqur ilmiy-pedagogik yondashuv kerakmi?..

Biz mana shunday og‘riqli savollarga javob topmasak, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olishga, umuman, bu muammoni bartaraf etishga erishuvimiz qiyin kechadi.

Humoyun AKBAROV

“MEN INSONNING KO‘NGLINI, ORZU-ARMONLARINI CHIZAMAN”

Boshlanishi 1-sahifada.

– Asarlari yashab qolishini har qanday ijodkor xohlaydi, menimcha. Ammo rassom ijod jarayonida ishlayotgan surati bilan tarixda qolish yoxud uni qimmatroqqa sotib boy bo‘lish haqida o‘ylasa, maqsadiga erisha olmaydi. Bir tanishim: “Ayamay xarajat qilaman, eng qimmat moybo‘yoqlardan foydalanaman, qattiq ishlayman, lekin nega mening rasmlarim qimmatga sotilmaydi?” deb so‘rab qoldi. Unga javob berdim: “Ishlayotib rasmni sotish haqida o‘ylama!”

Rassom, hatto bu dunyoda yakkayu yolg‘iz qolib ketgan taqdirida ham, uning ishlarini hech kim ko‘rmagan taqdirda ham ijodsiz yashay olmagani uchungina ijod qilishi kerak.

– Bir qancha milliy va xalqaro mukofotlar laureatisiz. Haqli ravishda e’tirof etilganingiz biz muxlislaringizni quvontiradi, albatta. Mukofotlar, e’tiroflar sizga nima beradi?

– E’tirofdan, qadr topganidan odam xursand bo‘ladi, albatta. Lekin bu – mukofotlar, e’tiroflar borligi uchun ijod qilishda davom etyapman, degani emas. Mabodo shular bo‘lmaganida ham men ishlardim, ehtimol, chalg‘imasdan ko‘proq va xo‘broq ishlardim.

– “Men din va san’at orasida uzoq tentiradim. So‘ngra tushunib yetdimki, tabiatni, san’atni va Xudoni bir-biridan ajratib bo‘lmas ekan”, deydi Van Gog.

– Insonni Alloh yaratgan va iqtidorni ham unga o‘zi bergan. Buni inkor eta olamizmi? Van Gog mutlaqo haq, tabiatni, san’atni va Xudoni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi!

Ijodimdagi odamlar tasviri – mening xayoliy obrazlarim. Haqiqiy hayotdan farq qiladi. Men inson shaklida insonning ko‘nglini, orzu-armonlarini ifoda etishga harakat qilaman. Haqiqiy hayot beshafqat, odamlarning bir-biriga munosabati ayovsiz, shuning uchun obrazlar orqali o‘z olamimni yaratib olganman.

– Demak, asarlaringizda siz ko‘rib turgan emas, siz ko‘rishni istagan hayot aks etgan. Men qo‘lning yo‘qligi – bu nafsni chegaralash, yuzning noaniqligi esa o‘zini o‘zidan yashirish, deb tushunyapman. Muxlislar suratlaringizda siz tasavvur qilganingizni emas, o‘zi ko‘rishni istaganini ko‘rsa, uning ko‘rganlari sizning nuqtai nazaringizdan butunlay farqlansa, sizga qanday ta’sir qiladi?

– Ishlagan suratlarimni tomosha qilgan odam ularda o‘zining qaysidir qirrasini topsa, o‘zi va hayoti haqida o‘ylab ko‘rsa, xayolan va qalban poklansa, shuning o‘zi yetarli.

– “Ichimdagi ichimdadir” deb nomlangan yangi asaringiz menda katta taassurot qoldirdi. Inson ichidagi “men”larning bir umrlik kurashi oq va qora buqalar shaklida aks ettirilgan. Oq buqaning botinini pokdomon qushlar, qora buqa botinini yirtqich jonzotlar boshqaryapti. Agar asarning nomini o‘qimaganimda, yaxshilik va yovuzlikning qadimiy kurashi, deb o‘ylagan bo‘lardim...




– Albatta. Musavvir o‘z iste’dodini oxirigacha namoyon etish uchun nafaqat tasviriy san’at daholarini, balki adabiyotni, musiqani ham chuqur bilishi, badiiy kitob o‘qishi shart. Rassomchilik yo‘nalishidagi ijodiy imtihonlarga hay’at a’zosi bo‘lib kiraman. “Qaysi kitoblarni o‘qigansiz?” degan savolga yoshlardan hech qoniqarli javob ololmayman. Yozuvchi, shoirlarning hatto ismini ham bilmaydi ko‘pchiligi. Bir imtihonda abituriyentlardan birining esiga “Xamsa” tushib qoldi. “Xamsa” qanday kitob o‘zi? Nechta dostondan iborat?”, deb so‘radim. Voqea va g‘oya haqida gapirish tugul, hatto shu savolga javob bera olmadi. Bulardan qanday rassom chiqadi, kitob o‘qimagan odam qanday qilib rassom bo‘ladi, bilmayman. Axir, ijod degani shaxs sifatidagi o‘z dunyoqarashingni ifoda etishdir. Kitob o‘qimagan odamda mustaqil dunyoqarash qayerdan bo‘lsin?

– Kitob o‘qiydigan rassom bilan kitob o‘qimaydigan rassomning ijodiy ishlari o‘rtasidagi farqni sezasizmi?

– Yaqqol sezaman. Kitob o‘qimaydigan rassom – hunarmand, u ko‘zi bilan ko‘rganinigina ishlaydi. Kitob o‘qiydigan, fikrlaydigan musavvirning esa uchinchi ko‘zi bo‘ladi, boshqalar ko‘ra olmaydigan narsalarni ko‘radi, yangi bir dunyo yaratadi.

Afsuski, ziyolilik, bilimdonlik hozirgi zamon odamlari orasida avvalgiday faxr bo‘lmay qoldi. Bu bizning eng og‘riqli nuqtamiz. Ziyolidan ko‘ra cho‘ntagida puli ko‘pning obro‘si baland.



Biz hozir bilimimizni emas, ongimizni emas, estetik didimizni emas, faqat nafsimizni to‘yintirish bilan ovoramiz. Hamma narsaga nafsimizning istaklari orqali baho beradigan bo‘lib qoldik.

Shu bois biz ko‘p insoniy sifatlarimizdan mahrum bo‘ldik. Avvalzamonlarda bir podsho tarki dunyo qilmoqchi bo‘lgan ekan. Saroy shoirini oldiga chaqirib: “Senga bir yaxshilik qilmoqchiman. Ruxsat beray, men shu yerda paytim uzoq-uzoqlarga ketgin. Chunki sen mening yaxshi tomonimni oshirib, yomon tomonimni yashirib she’rlar yozding, ko‘kka ko‘tarding, mendan keyingi shoh seni tinch qo‘ymaydi”, debdi. Shunda shoir javob beribdi: “Shohim, siz bemalol tarki dunyo qilavering, sizni qanchalar osmoni falakka ko‘targan bo‘lsam, keyingi shohni ham shunday ko‘tarib yashayveraman”. Biz mana shu hikoyatdagi shoirga aylandik va fojia shundaki, laganbardorlik davrimiz odamlari uchun oddiy holga aylandi, jamiyat tomonidan normal holat, deb qabul qilinyapti. Hatto buning orqasidan insonlar ko‘p narsalarga erishmoqda. Toki bu illatdan xalos bo‘lmas ekanmiz, bizdan Shaxslar yetishib chiqishi qiyin.

– Fojianing ildizi qayerda, deb o‘laysiz? Bizni shaxssizlikdan, ma’rifatsizlikdan, jaholatga butkul g‘arq bo‘lishdan xalos etguvchi Nuhning kemasi qayerda?

– Shaxsning buyukligi husnixatini chiroyli qilish ustida ishlashdan boshlanadi. Biz oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda test tizimiga o‘tib yanglishdik. Loaqal, ijodiy yo‘nalishlarda test tizimini bekor qilish kerak. Abituriyent bilan yuzma-yuz ko‘rishib, ko‘zlariga qarab, fikrlarini, gap-so‘zini tinglab, yozgan inshosini o‘qib, uning bo‘ladigan yoki bo‘lmaydigan ekanini aniqlash kerak. Yoshlarning kitob o‘qimay qo‘ygani sabablaridan biri ham aynan shu test tizimining joriy etilishi bilan bog‘liq deb o‘ylayman. Tasavvur qiling, yoshlar biror asar haqidagi savolni va javobni yodlab olib, testda belgilab chiqishayapti. Agar og‘zaki javob berishsa, shu asarni haqiqatan o‘qishga, asar xususida fikrlashga majbur bo‘ladilar. Chunki hay’at a’zolari tomonidan kutilmagan savollar tushib qolishi ehtimoli bor. Insho yozishsa, o‘qish, fikrlash bilan birga chiroyli va xatosiz yozishni o‘rganishga, savodini oshirishga ham majbur bo‘ladilar. Menimcha, ta’lim sohasini isloh etish, bu sohada amalga oshirilayotgan turli tajribalarni to‘xtatib, sohaning haqiqiy mutaxassislari fikriga tayanib ish ko‘rish kerak.

– Odam umri davomida nimanidir topib, topganlari evaziga yana nimanidir boy berib boraveradi. Ko‘pchilik ijodkorlarning yoshi ulg‘aygan sari mahorati ortadi, biroq yoshlikdagi qalb haroratini saqlab qololmaydi. Bundan o‘ttiz yil oldingi musavvir Akmal Nur bilan hozirgisini solishtirib, nima deya olasiz? Bugungi ishlaringizdan ko‘nglingiz to‘ladimi?

– Men ko‘pchilik oltmish yoshli odamlar kabi va ko‘pchilik amaldorlar kabi bilishim shart bo‘lmagan ko‘p narsalarni bilib qo‘ydim. Endi istaymanmi-yo‘qmi, bilganlarim, his etganlarim, o‘ylarim ijodimda aks etadi. Yaxshisi, kechagi va bugungi ijodimni taqqoslab, bu savolga muxlislarim javob bersinlar. Mening xolis javob berishim qiyin.

– Siz iste’dodli musavvir bo‘lish bilan birga, O‘zbekiston Badiiy akademiyasining raisi hamsiz. Bu mas’uliyatli lavozim ijodingizga xalal bermaydimi? Siz qayerda o‘zingizni ko‘proq topasiz: amal kursingizdami yoki ijodxonangizdami?

– Men ijod qilayotgan paytimdagina haqiqiy Akmal Nurman. O‘zimga qolsa, tarki dunyo qilib, kimsasiz bir joylarga ketib, tinimsiz ijod qilgan, o‘z ustimda ishlagan bo‘lardim. Ammo menga shunday mas’uliyatli lavozimni ishonib topshirishgan ekan, bu ishonchni oqlashim kerak. Qolaversa, shu kursida o‘tirib chin ijodkorlarga foydam tegsa, ularning ishlashlari uchun qo‘ldan kelganicha sharoit yaratib bera olsam, zimmamdagi vazifam menga yuk bo‘lib tuyulmaydi.

– Badiiy akademiya a’zolariga ijod qilishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratish harakatidasiz?

– Markaziy ko‘rgazmalar zalini qayta ta’mirlash harakatidamiz. Oqtepada to‘rt qavatli binomiz bor, u yerda bizning fondimiz, 15000 ga yaqin asar saqlanadi. Asarlarni boshqa joyga ko‘chirib, o‘sha binoni ijodiy ustaxonaga aylantirish va qirq nafar yosh rassomga bo‘lib berishni rejalashtirayapmiz. O‘sha yerning o‘zida bir gektardan ortiq yer bor, u yerga galereya, artkafe, surat sotadigan do‘konlar, ustaxonalar qurmoqchimiz. Nasib etsa, sayyohlar ham borib, o‘zbek tasviriy va amaliy san’ati namunalari bilan tanishadigan joy bo‘ladi.

Amalga oshirilgan va amalga oshirilishi ko‘zlangan ishlarimiz ko‘p, gapiraversak, maqtanchoqlik bo‘lib qolmasin.

– Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat.

Oydin YO‘LDOSHEVA
suhbatlashdi.

BITMAS BISOTIMIZ

AYOL BORKI, ZARGARGA ISH TOPILADI

Kundalik turmushimizda qimmatbaho ma’danlar bilan bog‘liq bo‘lgan “tilla bola”, “tilla qiz”, “oltin zanglamas”, “Oltin o‘tda bilinar, odam mehnatda”, “tilla bosh”, “oltin kuz”, “kumush qish”, “zumrad bahor”, “oq oltin” kabi maqollar, so‘z va ifodalar ko‘p qo‘llaniladi. Bundan tashqari, qiz chaqaloq tug‘ilganda “Kumushoy”, “Oltinoy”, “Zumrad”, “Yoqutxon” singari qimmatbaho javharlarning nomlari ism sifatida qo‘yiladi. Ayol bois gap javohirlarga borib taqalar ekan, zargarlik to‘g‘risida so‘z yuritmoqchimiz.



Qadimdan yurtimizda ayollar va erkaklar taqinchog‘ini yasashda turli xil bezaklardan foydalanilgan. O‘zbek zargarlari tomonidan yasalgan buyumlar sharqona shakllar va naqshlarning o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Sharqda, xususan, turkiy xalqlarda zargarlik buyumlarining yasalishida uyg‘unlik bo‘lsa-da, nomlanishi va ko‘rinishida ma’lum farqlar bor. Islom dinida erkaklar barmog‘iga kumush uzuk taqib yurishi sunnat sanaladi. Ilgari boy savdogar oilalarning erkaklari turli xil qimmatbaho metallardan ishlangan uzuklar taqishgan. Hatto, sallalariga taqinchoq sifatida jig‘a taqishgan. Tibbiy jihatdan ham kumushning salomatlikka foydali jihatlari bor. Shunday bo‘lsa-da, qimmatbaho toshlardan jilo berilgan taqinchoqlar muntazam taqilmagan. Asosan, mehmondorchiliklarda, to‘y-marosimlarda taqilgan. Ayollar esa, mashvaratlarda, gap-gashtaklarda, o‘zaro yig‘inlarda taqinchoqlarini ko‘z-ko‘z qilishgan. Bu hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Bekorga aytishmaydi: “Dunyoda bitta ayol qolsa hamki zargarga ish topiladi”.

Uzuklar, asosan, tilla va kumushdan yasalgan. Toshlari yomon ko‘zlardan asraydi deyilgan. Chaqaloqlarni ilk bor cho‘miltirayotganda bola davlatmand bo‘lsin deb suvga uzuk solishgan.

Bolaligimizda ko‘p ertaklar, xalq dostonlarini tinglaganmiz, o‘qiganmiz. Ularda sehrli va xosiyatli uzuklar bilan bog‘liq sarguzashtlar sodir bo‘ladi. Bahodirlar yorining jamolini nigin (uzuk) ko‘zida ko‘rib es-hushidan ayrilib, uni qidirib topish uchun yo‘lga chiqishadi, ko‘p jasoratlar ko‘rsatib murod-maqsadiga yetishadi. Rivoyatlarda aytilishicha, Hazrat Sulaymonning: “Bu dunyodagi hamma narsa o‘tkinchi”, degan so‘zlar o‘yib yozilgan uzugi bo‘lgan, u hayotining qayg‘uli onlarida uzukdagi ana shu hikmatli bitikni o‘qib, taskin topgan. Tarixdan ma’lumki, uzuklar o‘sha mamlakat podshosining muhri hisoblangan. Amir Temurning uzugiga bitilgan “Kuch – adolatdadir” degan hikmatli ibora ham didaktik ahamiyatga molikdir.

Ilmiy ishim yuzasidan Jarqo‘rg‘on tumaniga borganimda “Qo‘ldovli” mahallasining kayvoni ayollaridan biri, gapga chechan Oyday Toshboltayeva va Tursunoy Shaymatovadan ko‘plab ma’lumot oldim. Ular “tillachilik” (zargarlik mahsuloti olib-sotari) bilan ham shug‘ullanishgan. Momolarning aytishicha, ilgari hozirgiday zargarlik do‘konlari bo‘lmagan, zargarlar buyumlarini qishloqlar oralab sotgan.

Suhbatimiz zargarlik buyumlari haqida bo‘ldi. Ulardan bilmaganlarimni bilib oldim. Taqinchoqlar boshga, qoshga, peshonaga, burunga, quloqqa, bo‘yinga, ko‘krakka taqilgan. Jumladan, tillaqosh, silsila, mohitilla, xatabak taqinchoqlarini ayollar boshga taqishgan ekan. Jarqo‘rg‘on hududidan Surxon daryosi, Zang kanali oqib o‘tishini hisobga olsak, bu yerda suv mo‘l bo‘lgan. Suvli qishloqlar xotin-qizlari negadir ko‘proq kumushdan yasalgan tillaqosh taqishgan. Silsila taqinchog‘i, yuqorida aytganimizdek, bayram kunlari, to‘y-hashamlarda ko‘rkam liboslar ustidan taqilgan. “Silsila to‘rt qismdan iborat bo‘lgan”, deydi suhbatdosh ayollar. Bular – xatabak, silsila, go‘ysha, chekkaduo.

Suhbatimizni Oyday momoning qaqajon nevarasi bo‘ldi. U buvisidan qo‘lidagi sochiga sochpopuk ja(e//o‘)malak taqib qo‘yishini so‘radi. Momoning aytishicha, soch bilan qo‘shib o‘rilgandan keyin jo‘malakning (shevada “a” tovushi “e” va “o‘” tarzida talaffuz qilindi) o‘ziga ham tug‘dona (soch uchun ishlatiladigan taqinchoq nomi, ko‘pincha jamalak sochga ulangandan keyin jamalakka taqiladigan ko‘zmunchoqqa o‘xshash bo‘lgan) degan taqinchoq taqiladi.

Eski tangalardan ham (ko‘pincha kumushdan ishlangan) ko‘krakka osiladigan va sochga taqiladigan taqinchoqlar tayyorlangan. Bu tangalar poshshoyi tanga ham deb nomlangan. Quloqqa taqiladigan qozig‘i (sirg‘aning bir turi) ham ana shu poshshoyi tangadan yasalgan. Setora taqinchog‘iga ham ular bilan bezak berilgan. Qora qo‘yning junidan ayil shaklda to‘qilgan mato ustiga poshshoyi tangalar teriladi. Mato ko‘ylakning bor bo‘yiga (old tarafi) ulanadi, quyi qismi po‘pakli bo‘ladi.

Qo‘ng‘irot ayollarining burunga taqiladigan sirg‘alari bo‘lib, burunning ikki chetiga, burun parraklariga va o‘rta devoriga taqilgan. Shunga ko‘ra lativa – xalqa (litva//letuba, natik//natib) izmak va aravak (arabak) kabi nomlar bilan atalgan. O‘rta devoriga taqilganlari “bo‘lovi”, “burun baldoq” ham deb atalgan. Qo‘ng‘irot xotin-qizlari ko‘proq bo‘yinga va ko‘krakka taqiladigan munchoq va marjonlarni yoqtirishgan. Ularni o‘zlari ham yasashgan. Munchoq va marjonlarni javak, gulbadan yoki xapamat deb nomlashgan.

Shuningdek, bezak o‘rnida tumorlar ham ishlatilgan. Tumorlar bo‘yinga, qo‘ltiqqa, kiyimlarga taqilgan. Kiyimlarga esa ignaqadoq (bilafka) bilan qadashgan. Qizlar, albatta, tillaqosh bilan uzatilgan. Tillaqosh balo-qazolarni daf qiladi, degan qarash bo‘lgan. Tursunoy momo ham qizini chiqarayotganda unga enasidan qolgan tillaqoshni, shu bilan birga, pand-nasihatlarini, mehr-muhabbatini ham meros qilib beribdi.

Bargak – kelinlik taqinchog‘ining nomi, u tilla yoki kumushdan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida tayyorlangan. Bir necha osma taqinchoqlardan iborat bo‘lgan. O‘rta yoshli yoki yoshi o‘tgan ayollar burnining o‘ng tomoniga natik-letuba (halqa) (“Burnimda tillo letuba, ayag‘im muzlarda qotiba”), bilaklariga bilaguzuk, quloqlariga isirg‘a (zirak), bo‘yinlariga eshilgan ipga tizilgan xafamand (atash variant: xafamat), gulband (atash variant: gulmat) taqishgan. Yoshi o‘tgan ayollar bo‘yin terilari osilib turganini yopish uchun taqinchoq taqishgan. 3-5 qator qilib mayda marjon va munchoqlardan terib yasalgan ushbu taqinchoq qoriq deb atalgan.

Zargarlik mahsulotlaridan bo‘yinga taqiladiganlari – zanjirlar ham juda bejirim ishlangan. “Qorg‘i” oq-qora, sariq, qizil munchoqlar ipga tizilib, bir qator qilib bo‘yinga taqiladigan taqinchoq nomi. Shuningdek, haqiq ham qizil munchoqtoshlar ko‘zmunchoqlar bilan birga terib bo‘yinga taqiladigan taqinchoq bo‘lib, uni ham qorg‘iga o‘xshatib oddiygina bo‘yinga osiladigan (taqiladigan, ilinadigan) taqinchoq, deb umumiy nom bilan ataymiz. Har xil rangdagi munchoqtoshlar 3-5 qator qilib terilgan va har joydan siqib bog‘langan bog‘liqquloq taqinchog‘ining nomlanish tarkibida “quloq” so‘zi bo‘lsa hamki, u bo‘yin taqinchog‘i hisoblanadi.


Sirg‘alar (isirg‘a, zirak, baldoq)ning ham turli xildagi qadimiy nusxalari bo‘lgan. Ularning nomlanishiga e’tibor berilsa, nega shunday atalganini anglash mushkul emas. Masalan, uy sirg‘asi, oybaldoq, qoziq sirg‘a, aylana sirg‘a, bodomsimon sirg‘a, halqai muhammadi (Bibi Fotimaning sirg‘asi)...

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, xalq madaniyatining, ma’naviyatining o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan hunarmandchilik buyumlari vaqt o‘tishi bilan hayotimizdan sekin-astalik bilan chiqib ketmasligi, balki yanada sayqallanib, takomillashib, avloddan-avlodga meros bo‘lib qolishi lozim. Bu esa, nafaqat hunarmandlarimizning vazifasi, balki biz kabi tilshunoslarning ham ona tilimiz oldidagi burchimiz ekanligini unutmasligimiz lozim.

Mansur HAMIDOV,
Termiz davlat universiteti
katta o‘qituvchisi

YURT QAYG‘USI


KURASHXONA QO‘ZG‘OLONI



1916-yil 25-iyunda Chor Rossiyasi podshosi Nikolay Ilning Turkiston, Sibir va Kavkaz o‘lkalaridagi rus bo‘lmagan aholi vakillaridan 250 ming erkakni front orqasidagi turli ishlarni bajarish uchun safarbar qilish haqidagi farmoni qabul qilinadi. Tarix sahifalarida mardikorlikka olish voqeasi sifatida muhrlangan ushbu jarayondagi nohaqlik, adolatsizlik va firibgarliklar shundoq ham nochor va zabun hayot kechirayotgan oddiy xalqning sabr-kosasini toshirib yuboradi. Natijada o‘lkamizning turli chekkalarida birin-ketin qo‘zg‘olonlar yuz bera boshlaydi.

Mustamlakachi ma’murlarning rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, o‘sha kezlarda birgina Farg‘ona vodiysining o‘n yetti hududida to‘qnashuvlar sodir bo‘lgan. Shunday voqealardan biri 1916-yil 11-iyulda Namanganda ham ro‘y beradi. Namanganliklarning safarbarlikka qarshilik ko‘rsatishi, norozilik namoyishlari oxir-oqibat ochiq qo‘zg‘olonga aylanib ketadi. Isyonchilarning aksariyati kambag‘al dehqonlar, kosib va hunarmandlar bo‘lib, ular tengsizlik va xaqsizlikka qarshi kurashish uchun maydonga chiqqan edi.

Shu kuni mazkur shaharning Labbaytog‘a dahasidagi Kurashxona maydonida bir yarim ming odam to‘planib, oqsoqollardan mardikorlikka chaqiriluvchilar ro‘yxatini yirtib tashlashni talab qiladi. Labbaytog‘a dahasining qozisi favqulodda voqea haqida darhol pristavga xabar yetkazadi. Pristav V.Dombrovskiy tish-tirnog‘igacha qurollangan harbiy qism bilan yetib keladi. Erkaklar, ayollar va bolalardan iborat olomon chor ma’muridan safarbarlik ro‘yxati tuzishni to‘xtatishni talab qiladi. G‘alayon kengayib ketganidan xabar topgan kapitan Rumyansev ham o‘z rotasi bilan yetib kelib, norozi olomonni tinchlantirishga urinadi. Lekin unga hech kim quloq solmaydi. Shundan so‘ng Kurashxona maydoniga pulemyot bilan qurollangan rota chaqiriladi. To‘planganlar askarlardan cho‘chish o‘rniga “Urush-



Akbarali Mo‘minov

da o‘lgandan ko‘ra, uyda o‘lgan afzal!”, “Mardikorlikka odam bermaymiz!”, deya hayqiradi. Rumyansev esa dabdurustdan aholini o‘qqa tutishga buyruq beradi. Pristav V.Dombrovskiyning e’tirof etishicha, qurolsiz qo‘zg‘olonchilar, katta talafot ko‘rganiga qaramay, harbiylar bilan mardona kurashgan, politsiyaga hujum qilib, pristav Fedorovning to‘pponchasini tortib olmoqchi bo‘lishgan, hatto qo‘zg‘olonchi Jamoliddin Uvaysov bir politsiyachining qilichini tortib olgan. Otishma oqibatida ko‘plab kishilar halok bo‘ladi, yaralanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, yaradorlar orasida uch ayol va bir nafar yosh bola ham bo‘lgan.

O‘sha kuni uch yarim soat davom etgan bu qo‘zg‘olon Namangan xalqi hayotida o‘chmas iz qoldirdi. Qo‘zg‘olon qatnashchilaridan sakson to‘rt kishi turli muddatlarga qamoq jazosiga hukm qilinadi. Arxivda saqlanayotgan qo‘zg‘olonga doir harbiy sud materiallarida qayd etilishicha, qo‘zg‘olonni tashkil etishda sartarosh G‘ofur Xo‘ja, duradgorlar Abdurahmon Roziqboyev, Yo‘ldoshxo‘ja Usmonxo‘jayev, suvoqchi usta Yo‘ldosh Mirzayev, etikdo‘z aka-ukalar Usmon Qori va Ravshan Qori Xalfayevlar, ishchi Yunus Yoqubboyev, to‘quvchi Dadaboy Orifboyev va boshqalar tashabbuskor bo‘lib, to‘qnashuv chog‘ida mardona halok bo‘ladi.

Ushbu mash’um voqea ta’sirida Kapa volostining Sho‘rqo‘rg‘on, Uychi volostining Yorqo‘rg‘on, Qizil Rovot va Mashad, Namangan volostining Uyg‘ur, Toshqo‘rg‘on, Tepaqo‘rg‘on, Peshqo‘rg‘on, Tergachi volostining Chindovul qishloqlarida ham mardikorlikka olishga qarshi qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tgan.

Oxir-oqibat Namangan uyezdining deyarli barcha volostlaridan ko‘plab kishilar front orqasida mehnat qilish uchun majburan Rossiyaga jo‘natilgan. Mardikorlar harbiy va sanoat korxonalarida, konlarda, temir yo‘llar qurilishida, o‘rmonlar va ayrim kapitalistlarning xo‘jaliklarida qattiq nazorat ostida betinim ishlab, ochlik, xo‘rlik va mashaqqatli mehnatdan ko‘p aziyat chekkan. Ba’zilari turli kasalliklardan vafot etgan yoki umrbod nogiron bo‘lib qolgan.

Respublikamizdagi muzey va arxivlarda Namanganda 1916-yil iyulda ro‘y bergan voqealarga doir materiallar, qo‘zg‘olon ishtirokchilarining suratlari saqlanadi. Xususan, Gavrilov tomonidan 1940-yilda chizilgan tarixiy janrdagi 150x100 o‘lchamdagi “Kurashxona qo‘zg‘oloni” nomli kartina KP-16254 raqami ostida Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanmoqda. Ushbu kartinada 1916-yilda Kurashxona maydonida qo‘zg‘olon qatnashchilarining pulemyotdan o‘qqa tutilishi tasvirlangan. Shuningdek, qo‘zg‘olon qatnashchilari Akbarali Mo‘minov, Muhiddin Matkarimov va Abduxalil Sodiqovning suratlari mavjud.

Erkparvar o‘zbek ziyolilarining istiqlol yo‘lida olib borgan kurashi 1991-yil sentyabr oyida yurtimizda haqiqiy mustaqil davlat tashkil etilishi bilan o‘z yakuniga yetdi. XX asr avvalidagi davr tarixining bu sahifalari kelgusida jiddiy tadqiq etilishi va undan zarur xulosalar chiqarilishi lozim.

Muqaddam USMONOVA,
Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Abduvahobov Abdullaxon To‘ra – 1879-yil Andijon shahrida tug‘ilgan. Jang vaqtida qizil armiya qismi tomonidan qo‘lga olingan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, hibsga olingan vaqtda “Chiqindixomashyo” xodimi bo‘lgan. Kolxozchilar va ta’lim olayotgan yoshlar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 4357-sonli ish bo‘yicha 1937-yil 22-iyulda otuvga hukm qilingan.

Akramxo‘jayev Mahbubxon – 1883-yili Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, hibsga olingan vaqtda do‘kon mudiri bo‘lgan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. 1370-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Rahmatboyev Mulla Lutfi – 1867-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. 1927-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 5 yil qamoqqa hukm etilgan. 1932-yili maxsus posyolkaga surgun qilingan va surgun joyidan qochishga muvaffaq bo‘lgan. 1936-yili chayqovchilik qilgani uchun javobgarlikka tortilgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. 5769-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan.

Rahmatullayev Ismatulla – 1883-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, “Nashri maorif”, “Anjumani maorif” aksilinqilobiy tashkilotlari a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda kutubxona mudiri bo‘lib ishlagan. 1362-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xotin-qizlar ozodligiga qarshi fikr bildirganlikda ayblangan.

Nizomiddinov Mirza Puli – 1884-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Hibsga olingan vaqtda savdo bazasida tovarshunos bo‘lib ishlagan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, ocharchilik to‘g‘risida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan. 5775-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, jazo muddati 1937-yil 14-sentyabrdan hisoblangan.

Sulaymonov Salohiddin – 1888-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, bosmachilik harakati ishtirokchisi. 1923-yili Afg‘onistonga qochib ketib, 1933-yili qaytib kelgan. Aksilinqilobiy faoliyati uchun javobgarlikka tortilgan. Hibsga olingan vaqtda kolxoz a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida ocharchilik to‘g‘risida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan. 5770-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, jazo muddati 1937-yil 12-sentyabrdan hisoblangan.

Hamidboyev Qori Zikr – 1870-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. 1923-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 2 yil qamoqqa hukm etilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, VKP(b)ning sobiq a’zosi. 1933-yili partiyadan o‘chirilgan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida partiya va hukumat tadbirlariga qarshi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 1379- sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

Karimov Mirza Xol – 1891-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. 1920-yili VKP(b) safidan chiqarilgan, “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Hibsga olingan vaqtda ombor mudiri bo‘lib ishlagan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 5765-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm etilgan.

Rahmatullayev Telyau – 1895-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. 1936-yili VKP(b) safidan chiqarilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Hibsga olingan vaqtda choyxona mudiri bo‘lgan. Aholi orasida millatchilik targ‘ibotini olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda, xotin-qizlarni ozod qilishga qarshi fikr bildirganlikda ayblangan. 1384-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

Hakimov Mavlon – 1905-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. “Islom”, “Yoshlar”, “Uyushma” tashkilotlarining rahbari va tashkilotchisi. Jazoni o‘tamay qochgan, hibsga olingan vaqtda bosmaxonada harf teruvchi bo‘lib ishlagan. Atrofiga millatchilik kayfiyatidagi kishilarni to‘plaganlikda, aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 4691-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 14-avgustdan hisoblangan.

Bo‘rixonov Eshonjon – 1878-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo‘lib ishlagan. 52-sonli ish bo‘yicha 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. “Ittihod va taraqqiy” tashkilotining a’zosi. Aholi orasida aksilinqilobiy, mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda, yaqin orada hokimiyat o‘zgarishi haqida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan.

Yusufxo‘jayev Usmonxo‘ja – 1875-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1932-yili kolxozda o‘g‘irlik qilgani uchun 10 yil qamoqqa hukm etilgan. Jazoni o‘tamay qochgan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. 4310-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm etilgan. “Sho‘royi Islom” va “Milliy ittihod” tashkilotlari a’zosi. “Milliy ittihod” tashkiloti rahbari Sadriddinxon Sharifxo‘jayev rahbarligidagi to‘dalarni kuzatgan, xotin-qizlar ozodligiga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,

Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

TABDIL



O‘ZBEK KUYLARINI QANDAY SAQLASH MUMKIN?

XX asrning 20-yillarida Moskva Davlat teatr san’ati institutida o‘qigan Qori Yoqubiy (Muhiddin Qori Yoqubov)ning mazkur maqolasida o‘zbek kuylarini kelajak uchun saqlab qolish, xususan, ularni notaga solishda fonograf – ovoz yozish uskunasidan foydalanish zarurati aytiladi. G‘arb san’atidan farqli o‘laroq, Sharq musiqasi tabiatiga ko‘ra alohida yondashuvni talab etadi. Maqolada tilga olingan ayrim masalalar va tarixiy shaxslar bugungi kunda o‘zbek musiqashunosligi o‘tmishini o‘rganish uchun muhim sanaladi.

TAHRIRIYAT

Uzoq yillardan beri xalq bastakorlari va shoirlarimiz tomonidan yozilib, xalq shoirlari og‘zidan aytilib kelingan, ota-bobolarimizdan meros qolayotgan qimmatlik, boy o‘zbekcha kuylar zamonning o‘tishi bilan yo‘qolish darajasiga kelib qolmoqdalar. Zamon o‘tkan sari turmush o‘zgarib va bunga qarab xalqning fikri, hissiyoti o‘zgarganidek, xalq shoirlarining ijodiyotida ham bir qancha yangiliklar yaratilmoqdadir. Ilgari borg‘on sari eski kuylar uzoq burchaklarda, eski xalq shoirlaridag‘ina qolmoqdadir.

Bu ketishda bir necha yil o‘tmasdan eski o‘zbek kuylari oramizdan yo‘qoladir. Yangi bir asar yaratmoqda eskilar ancha yordam beradir, eskini bilganda yangilar ancha mukammal bo‘ladir.

Mana buning uchun eski kuylarimizni saqlash chorasini hozirdan ko‘rishimiz kerak.

Ovrupo musiqasiga, kuylariga nazar solsaq, har bir kuyni notaga solish bilan saqlab kelmakda ekanligini ko‘ramiz. Bizda nota yo‘q. Nota bo‘lg‘onda biz ham kuylarimizni saqlab qolg‘on bo‘lar edik. Bu kuylarning yo‘li, maqomi, tuzilishi va xalqqa bo‘lg‘on ta’siroti bilan yangi nasllarimiz ham oshno bo‘lib, shuning orqasida o‘zbek musiqasida o‘zbek tarixi taraqqiyotini yo‘qotmasliqqa ega bo‘lar edi.

“Ajabo, biz ham kuylarimizni Ovrupo notasiga olib, doim saqlab kelsak bo‘lmaydirmi?” degan bir fikr maydonga chiqishi mumkin. Bu juda yaxshi fikr. Faqat o‘zbek kuylarining notaga olinishini o‘ylag‘onimizda yana shunday bir masala kelib chiqadirki, o‘zbek kuylarini hozir notaga olamizmi, yo‘qmi? Basharti oling‘onda bizda nota yo‘q, albatta, Ovrupo notasiga olinadir. Menimcha, Ovrupo notasiga olish mumkin emas. Bizning o‘zbek kuylarining ko‘pida chorak va nimchorak tovushlar bor. Mana bu tovushlarni olmoq uchun Ovrupo notasi yetishmaydir, bularsiz bizning kuylarni notaga olib bo‘lmaydir. Men buni o‘z tajribam bilan ko‘rdim. 1923-yilda Moskovda tahsilda vaqtimda musiqiyshunos o‘rtoq Mirunov bilan birlikda ko‘p harakatlar orqasida bir necha o‘zbek kuylarini notaga oldirib, bostirib chiqardiq, shuningdek, o‘rtoq Uspenskiy tarafidan “Shashmaqom” va boshqa kuylar notaga olindi.

Endi bu Ovrupo notalari bilan yig‘ilg‘on o‘zbek kuylarini chaldirib o‘qutib ko‘rsak, ajabo, asl kuyni eshita olamizmi? Shunga qanoatlanamizmi? Albatta, yo‘q.

Men hali aytib o‘tkan notani bosdirib chiqarg‘onda ancha muvaffaqiyat qozondiq, degan edim. Lekin hozir tekshirib ko‘rsam, butunlay yanglish ekan. Haligidek chorak, nimchorak tovushlar bo‘lmag‘ondan kuyni aynan ifoda etmas ekan. Hozir o‘shal notalarga o‘zim hech bir qiymat bermayman. Albatta, boshqalari ham shunday. So‘ngra men Rusiya va g‘arbiy Ovrupoga qilg‘on sayohatimda ularning ko‘p musiqiyshunoslari bilan so‘zlashdim. Ular Sharq kuylarini saqlash uchun Ovrupo cholg‘u asboblaridan boshqa Sharq uchun alohida bir uskuna yasab, shuning vositasi bilan ish ko‘rishni ma’qul topadirlar. Sharq uchun ayrim yo‘l tutilishini, ayniqsa, ovrupolik mashhur musiqiyshunos professor Shumman juda to‘g‘ri topadir va o‘zi-da shu yo‘lda ortiq darajada ishlagandir. Chunonchi professor Shumman “funug‘rof” uskunasi vositasi bilan Sharq kuylaridan o‘n besh mingga yaqinini to‘plag‘on va bu kuylarni notaga solish chorasini izlab, natijada o‘zi Sharq kuylari uchun piyoninuga o‘xshash bir cholg‘u ixtiro etkan. Bu haligi chorak, nimchorak tovushlarni bera oladir. Professor Shumman Sharq kuylarini chalib, notaga solish mumkin ekanini bildiradir. Faqat bir achinarli hol borki, Shumman bu cholg‘uni o‘zi chiqorg‘on bo‘lsa ham chala olmaydir. Boshqalarning ham qo‘lidan kelmaydir. Faqat u cholg‘uda ul tovushlarni tayin eta oladir. Endi nima qilish kerak? Shunday keta beramizmi?

Kuylarni to‘plash uchun Ovrupoda, xususan, Germaniyada “funug‘rof” degan uskuna bor. Uni harakatga ketirib turib kuylagan vaqtda, grammofunga o‘xshab butun ovozni o‘ziga yig‘ib oladir. Ikkinchi qaytarib harakatga ketirsangiz, haligi aytkan kuyingizni aynan, hatto o‘z ovozingiz bilan o‘zingizga aytib beradir. Biz hozircha shu uskunadangina foydalana olamiz. Bu uskuna bilan to‘plag‘on kuyni 30-40 yil saqlash ham mumkindir (Komissarlar sho‘rosining raisi Fayzulla Xo‘jayev oldirmoq uchun Germaniyaga sporish berdi, tezda kelib qolsa kerak).

Ovrupo notasiga o‘zbek kuylarini hech olib bo‘lmaydir emas, bo‘ladir. Faqat hammasini emas, ba’zi bir kichik kuylar Ovrupo notasiga juda yopishib keladir. Ammo haligidek chorak va nimchorak tovushliq kuylar yana eski holida qoladir. Bularni yuqorida aytilgan uskuna vositasida olmoqdan boshqa chora yo‘q.

Bu to‘g‘rida musiqa havaskorlaridan o‘z fikrlarini matbuot orqali aytib o‘tishlarini va maslahat berishlarini kutib qolamiz.

“Yer yuzi”,
1926-yil 11-son.

Nilufar NAMOZOVA,
Zabarjad BOBOJONOVA nashrga tayyorladi.

E’TIROF

GO‘ZAL AXLOQ SOHIBALARI

Poyonsiz kengliklardan tortib, tumanli tog‘lar, hatto bog‘imizda barq urgan gullar, maysalar ham buyuk bir mukammallik namunasidir. Bobur Mirzo: “Yana sahni chaman bo‘ldi munaqqash rang gullardin, Magarkim, sun’ning naqqoshig‘a rang imtihonidur”, deb yozganida ana shunday mumtoz go‘zallik qoshida shoirona hayratga cho‘mgan bo‘lsa, ne ajab.

Oddiy chechakdan bol yiqqan arilar, daraxt novdasida sadafdek terilgan mevalaru undan rizqlangan qushlarda ham Yaratganning chevarligini, san’atini ko‘rish mumkin. Lekin butun borliqdagi yaratiqlar orasida, shubhasiz, inson eng mukammalidir.



Hayot erkakka ota bo‘lish, ayolga ona bo‘lishdek cho‘ng mas’uliyatni yuklarkan, ularga mos vazifalarni iqtidorlariga ko‘ra taqsimlaydi. Bu borada, ayniqsa, ayolning o‘rni nihoyatda muhim, u zurriyodlarni dunyoga keltirib, hayotning bardavomligini ta’minlaydi.

Jahondagi turlicha qarash va mafkura, madaniyat sohiblari bo‘lmish ayrim xalqlarda ayolning hayotdagi o‘rni va mavqei turli mezonlarda baholanadi. Shu bilan birga, qadimda ayol ojiza sanalib, inson o‘rnida ko‘rilmagani yoki aksincha, unga iloha sifatida sig‘inishlar bo‘lgani ham tarixdan ma’lum.

Buyuk o‘tmishi Islom dini ila sharafli bo‘lgan Turk dunyosi xalqlarining ayollar haqidagi ta’rif va tavsiflari bisyordir. Zotan, ayollar o‘zlarining iffat, sabr, sadoqat kabi fazilatlari bilan har jihatdan ibrat namunasi bo‘lib kelgan. Hozirga qadar ham ulug‘ momolarimiz nomini iftixor ila yodga olamiz. Ayniqsa, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur onalari, qiz va kelinlari otalari, erlari va akalarining ortida turib, dushmanga qarshi mardonavor kurashishgani, Vatani, tuprog‘i va or-nomusini himoya qilish uchun jonini fido etganlarini tarix bot-bot eslatadi.

O‘zbek ayollari haqida so‘z yuritganda ularga xos fidokor, sadoqatli, vafoli, mehribon, sabrli, mehnatkash kabi fazilatlarni faxr bilan ta’kidlagan bo‘lardim. Men 1991-yil Turkiyaga O‘zbekistondan kelgan talaba yoshlar bilan tanishdim. 1992–1993-yillarda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida turk tili bo‘yicha saboq berish uchun kelganimda, ayol hamkasblarim va ularning onalari bilan yaqindan tanishib, o‘zbek ayollariga xos jihatlarni kashf etdim. Toshkentdagi mahallalardan birida ijarada turgan paytimda ham qo‘shnilarimiz mendan muntazam xabar olar, taomlaridan ilinardi. Ko‘pincha ular bilan suhbatimiz umrboqiy an’analarimiz, turmush tarzimiz va, albatta, adabiyot haqida bo‘lardi.

Toshkent shahrida ishlagan paytimda hamkasb sifatida taniganim va yoshi onam tengi professorlar – Baxtli, Hilola, Favziya ismli opalarimizni bugun o‘zgacha bir sog‘inch bilan esga olaman. Tanaffus va tushlik mahalida ular kaminani siylab, o‘z o‘g‘illariday ko‘rib, iltifot ko‘rsatishardi. Nimaki bo‘lsa birga baham ko‘rib o‘rgangan bu mehribonlarim ko‘pincha: “Tansiqqina manti keltirdim, bir osham palov bor, Muhiddin... Kel-chi, birga yeymiz!” deyishardi.

1993-yil aprel oyida o‘sha paytdagi Turkiya rahbari Turgut O‘zal O‘zbekistonga tashrif buyuradigan bo‘ldi. Mamlakat endigina mustaqillikka chiqqan, iqtisodiy yetishmovchilik, qiyinchiliklar ko‘p edi. Mehmonlar safida Anqara universiteti rektori G.Akbay’i ham borligi, u men dars berayotgan universitetga kelishi xabar qilindi. Tantanali qabullardan keyin mehmon rektor: “Sizning bo‘limingiz qayerda? Qani, bir ko‘raylik-chi, Muhiddinbey”, dedi menga. Xonalarimiz oddiygina, rektorga ma’qul bo‘ladigan darajada muhtasham ham emas, degan o‘y bilan noiloj yo‘l boshladim. Ichimda: “E, Xudo, o‘zing baxayr qilgin”, deb tinimsiz duo o‘qirdim. Ammo xonaga kirganimizda mo‘jiza ro‘y bergandek bo‘ldi: xonamni umuman taniyolmay qoldim! Chiroyli pardalar osilgan, oynalar oldida gullar yashnab ochilib turar, stollarga yangi to‘shamalar tashlangan, bir so‘z bilan aytganda, nihoyatda ko‘rkam va sarishta ko‘rinish kasb etgandi. Shu bizning xonamizmi, deb qayta yo‘lakka chiqib qarab ham keldim. Yo‘q, aniq bizning xona! Unda kim uni bunday go‘zal holatga keltirdi? O‘ylab o‘yimga yetolmasdim. Bunda, albatta, ayol kishining, nozik did egasining qo‘li borligi kunday ravshan. Ammo kim u? Meni bu mushkul vaziyatdan, xijolatdan qutqargan najot farishtasidan, u kim bo‘lishidan qat’i nazar, ich-ichimdan minnatdor edim.

Devorga esa, mehmon o‘laroq kelgan rektorning go‘zal bir surati ilingan. Hamkasbim Zaki So‘zer ham birga edi. U ham hayron. Xullas, shu kuni mehmonlar bizdan juda rozi bo‘lib, mamnun holda qaytib ketishdi. Kayfiyatim nihoyatda ko‘tarinki edi. Axir, hammasi a’lo darajada yakun topgan edi-da.

Ertasi kuni ma’lum bo‘ldiki, sizga aytib o‘tganim – Baxtli opamiz, Xadicha, Oysha xonim va boshqalarning sa’y-harakati tufayli xonamizga shunday fayz kirgan ekan. Ularning bu yordamlarini hech qachon yodimdan chiqarmayman, hamisha minnatdorlik va ehtirom bilan esga olaman. O‘shanda xonamiz 12 ta til kafedrasi orasida eng olqishga loyiq topilib, televideniye, gazetalarda e’tirof etildi. Xonimlarga xonani bezatgan narsalarini olib ketishlarini aytganimda ular: “Olib ketib nima qilamiz? Qarang, qanday yarashib turibdi. Ular bizdan sizga sovg‘a”, deyishdi. Bu umrim davomida olgan eng aziz sovg‘a bo‘lib xotiramga muhrlandi.

O‘zbek qizlaridan iborat talabalarim eng go‘zal axloq, tarbiya sohibalari edi, desam aslo adashmagan bo‘laman. Oradan garchi ko‘p yillar o‘tgan bo‘lsa-da, qalbining go‘zalligi, shafqat va marhamat tuyg‘ulariga hamohang ismlari, siymolarini hurmat bilan xotirlayman.

San’at va adabiyot sohasida ham dunyo tan olgan o‘zbek ayollari ko‘p. Ularning sharafli faoliyatini o‘rganish va dunyoga tanitish lozim. Bu borada Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti bilan hamkorlikda ish olib borish niyatimiz bor. Men qariyb yigirma besh yildirki, Bishkek shahridagi Manas universitetida dars berib kelaman. Bu yerda ham o‘zbek do‘stlarimiz bor. Ahamiyatli jihati, ularning barchasi o‘zlarining qadriyatlari, urf-odatlarini ko‘z qorachig‘idek asrab kelishadi. Qizlar, ayollar milliy liboslarda yurishadi. O‘zligini unutgani yo‘q. Ularning bu fazilatini ta’riflashga so‘z ojiz.

O‘tgan yili Turkiyada yuz bergan dahshatli zilzila bizning yurtimizga misli ko‘rilmagan talafot keltirdi. Ana shunday qiyin va sinovli paytda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, ozar qardoshlarimiz bizning xalqimizga birinchilardan bo‘lib yordam qo‘lini cho‘zdi. Ularning bu marhamatini kelajak avlod hech qachon unutmaydi va hamisha minnatdor bo‘lib yodga oladi. O‘sha damda qayg‘umizga sherik bo‘lgan o‘zbek shoirlarining she’rlarini o‘qib, to‘g‘risi, ko‘zlarimiz namlandi. O‘zbek filologiyasi mutaxassisi Sabohat Bozorova jamlagan to‘plamda Nazira Boymurodova, Hafiza Egamberdiyeva, Lola Sobirova, Umida A’zam kabi shoiralarning hamdard o‘laroq yozgan she’rlaridan qalbim nihoyatda to‘lqinlandi. Ularga, butun o‘zbek ayollariga xalqimiz nomidan tashakkur va ta’zimlar izhor etib qolaman.

Muhiddin GUMUSH,
Qirg‘iziston-Turkiya Manas universiteti professori, turkolog, yozuvchi

QATRA

JO‘RALAR

Xayrullo bobo bilan Bo‘ston boboning do‘stligi el aro doston edi. Ko‘plarning havasi bor edi.

Bir soyda cho‘milib katta bo‘lishgan – Avazsoyning farzandlari. Ozmi ko‘p bozorchiligi bor, hisob-kitobli bo‘lishgan esa-da, kimsaning tiyiniga xiyonat qilishmagan, o‘z lafziga biy insonlar ekan. Jorubfurushlik qilib oila boqishgan, odamgarchilik qilishgan ekanlar...

Ularni bog‘lagan narsa dasturxon ham, kasb-u kor ham emas ekan. Gapi gapiga to‘g‘ri kelgan, bir-birining ko‘nglini topgan bolalar, yigitlar va chollar bo‘lib yashab o‘tishgan ekan...

Ularni men ham bilaman. Bola edim. Eshitganlarimning ma’nisiga ko‘p bormagan bo‘lsam-da, qiziqib kuzatganman...

Bo‘ston bobo uzunbelli katta eshagiga o‘rnashib, ertamatan Chashmaga kirib kelardi. Soy yo‘lidan yurib, to‘g‘ri Xayrullo boboning hovlisiga rov bo‘lar edi. Qishloq joy, kamdan kamda hovlida darvoza bor. Xayrullo boboning hovlisida darvoza o‘rniga yog‘och g‘ov qo‘yib qo‘yilgan edi: g‘ov deganimiz narvon bo‘larlik yog‘ochlar ikki tomonga tiklanar, bo‘ybarovar taglikka mindirib qo‘yilar, mol-holga to‘siq bo‘lardi. Odam orasidan engashib o‘tar, ulov kirar bo‘lsa tirgak olinar edi...

Bo‘ston bobo eshagini shu to‘siqqacha taqib minib kelardi-da, hassasi bilan g‘ovni taq-taq urardi.

Ko‘ndalang uyning derazasi ostidagi o‘rnida yotgan bemor “bu taqqillatgan” kimligini bilar va:

– Ha Bo‘ston, keldingmi? Sovmisan, – derdi bor ovozini jamlab.

– Do‘stim, bormisan, – derdi Bo‘ston bobo eshak ustida.

Javob:

– Shukur!

– Ha, men ketdim. Panoyi Xudo!

– Omonda bo‘l! Panoyi Xudo!

Xayrullo bobo deraza tabaqasini yoptirardi. Bo‘ston bobo eshagining boshini burardi.

Unisi joyidan turib kutib olgani chiqolmas, bunisi eshagidan tushib kirolmas edi... Uyida to‘qimdan amallab, suyab tushirishar, to‘shagiga qo‘ltiqlab etishardi...

Bu ish qachon boshlanib, qancha davom etganini bilmayman. Qaysi oldin o‘tgani ham yodimda yo‘q. Bilganim shuki, do‘stlikni oxirgi nafaslarigacha ardoqlab o‘tishdi.

Xayrullo bobo bilan Bo‘ston bobodan ziyoda davlat, ko‘shk-u ayvon qolmagani rost. Ammo mehr-u oqibat haqidagi doston qoldi. U hali ko‘p aytiladi...

Suyundik MUSTAFO

ZARDA

BORSAMMI, BORMASAMMI...

Kennaying bilan “og‘iz ochish”ga sumalak tuzukmi yo nisholda mavzusida sidqidildan bahslashib o‘tirsak, darvoza qo‘ng‘irog‘i tajang jiringlab qoldi. Shoshib chiqsam, xo‘mraygancha Shukur milyard turibdi. Odatiga ko‘ra, kaftini nisholda qoshiqdek qilib qo‘limga birpas ijaraga berib turdi-da, qaytarib cho‘ntagiga suqarkan, shiftga g‘ilaylanib: “Qale, tuzzumi?” deb qo‘ydi.

O‘zi shu milyardni iqim suymaydi. Amakim bandalikni bajo keltirganida “Patahachilarga bir juftdan paqir tarqatsa, tagi teshilguncha marhumga savob yozilarkan”, deb qaynisini o‘tmay qolgan matahini udum bahonasida tiqishtirmoqchi bo‘lganida tarjimai holiga birinchi shubham tug‘ilgandi. Keyin Lola lapaq chin dunyoga survorganida “Azadorlar orasidan bitta-yarimta jigarso‘xta yolg‘ondakasim bo‘sayam azbaroyi qayg‘urganidan qon bosimini sakratib shaytonlasinu, el ko‘ziga “Tez yordam” chaqirilsin. Iloji bo‘lsa, moshinasi sirenasini o‘chirmasdan, do‘xtirlari hassakashlar orasida oq xalati bilan ajralib o‘tirsin, hisob-kitobi shunga yarasha bo‘ladi”, deb jiyani Shodi shalayimni tirikchiligini tiklamoqchi bo‘lganda shubham uzil-kesil balog‘atga yetishgandi.

La’natini uddaburonligi bor, po‘k shalg‘amdanam qiyom qip Saxalinga urarmish. Nima? Kallami bu yo millyarddi pachaq paqirimi? Qiyom jonivorga tengma-teng suv qo‘shib bitta yaxshilab achitsang, tayyar samagon-u. Xullas, pul quturtirganmi, burni bulutni kesadi, hammani sansiraganiyam shundan. Puli ko‘p bo‘lsa o‘ziga, nima deding? Bo‘libam ja Ilon Maskchalikmasdir. U kuni televizo‘rda ko‘rdim, kamtargina bo‘lib idish-tovog‘ini o‘zi yig‘ishtirib, mayin jilmaygancha yuvib-taxlab yuribdi. Tag‘in beliga fartuq bog‘lavoganiga o‘lgim qistaydi... Nima? Xotini o‘tkirroqdir-da, deysanmi? Ha endi, yumronni xotini yumron, qoplonniki qoplon bo‘ladi-da, xo‘raz.

Indallo gap shuki, haligi milyard mirshablanib “Ro‘zamisan, ko‘za?” dedi-yu, xuddi odamning taqvosi saxti-sumbatidan ayonday bir odim chekinib, bosh-oyoq ko‘zi bilan siypalab chiqdi. Shunaqa pang‘ savolga sen nima degan bo‘larding, uka? Yasha, menam indamadim. Milyardni ishonchi komil bo‘ldimi, “Bir xizmat bor senga”, deb ko‘z qisib qo‘ydi. Xullas, aytishicha, Farg‘oniy mavzeyi tarafda bir oxuri baland oshnasi iftorlik berayotgan ekan-u, hamtovoqlari orasida ro‘zador topilmabdi. Ziyofatdan tashqari, cho‘ntakka atagani ham borakan. Bandasiga savob ham keragu deb noiloj rozi bo‘ldim.

Yo‘lda gap yo‘g‘ida gap, deb “Bu Farg‘oniy deganlari shuncha yo‘l bosib erinmasdan Misrga borganini qarang, Shukurullojon, yana bilmagan tili, o‘rganmagan ilmi qolmaganmish. Qanaqib voht topganakan-a”, desam, o‘richchalab: “Kim biladi”, deganday qip, nimagadir “Gelik”ini oltala oynasiniyam besabab tushirib-ko‘tarib qo‘ydi.

Ha, namuncha pivaga xom shaftoli zakuska qiganday besaranjomsan? Yo kelinim tilponingni yana tintuv qildimi? Ha, bo‘pti, qisqa qilaman. Iftor deganiga yig‘ilgan bo‘yni yo‘g‘on-u ko‘ngli noziklarni ta’rifini keltirib o‘tirmayman. Dasturxonga o‘tamiz. O‘bba xumpar-ey, darrov baliqchani ko‘rgan pishakdakkina bo‘p qoldingmi? Quyuq-suyuq, qazi-qarta, somsa-manti, tabaka-shashlik, norin-xasip, tandirkabobu qovurdoqqa o‘xshagan o‘zbekcha yemishlaringni sanab o‘tirmayman. Oq ikra, qora ikra, ularni buvisi... ha, baliqni aytaman-da, olabug‘a dimlamasi, tunesqoqi, ustrisa tolqoni, sakkizoyoqdan chuchvara, meduzali tuzlama, shakarga dumalatilgan shilliqqurt, qisqichbaqa sho‘rva, dengiz otini qazichasi, molyuska salatlarni... ha, ko‘pini nomini yonimdagi Shuxa bratandan so‘rab, tilponga yozvoganman. Bojalarga maqtanish keragu. Nima? Hada, gapni paynovi o‘shaqqa qarab ketyapti-yu o‘zi. Davrani yarmi suv maxluqlarini halol desa, qolgani harom deb qirpichoq bo‘p ketay dedi. Milyardni aytishicha, bu jonivorlar suvda chayinib yashagani uchun happa-halolmish, qolaversa, zakuskaga bulardan zo‘ri yo‘g‘imish. Bir dasturxonga qarayman, bir tokchada qog‘oz piyolada qopketgan nisholdamni o‘ylayman. Endi gapni bag‘ini eshit. Qaytayotib, yo‘lda milyardga: “Dasturxonni qarang-a...”, deb gap boshladimmi, to‘lib turgan ekan bechora, shampanday ko‘pirib berdi:

– Shuyam dasturxon bo‘ldimi? Onasini emsin, pissani Seuldan hozir keldi deydi. Ko‘rib turibman, kechagi. Sushi-pushisiyam juda bo‘lsa, Osakaniki... – deb javrab ketsa bo‘ladimi.

“Osaka o‘zimizning Asakami?” deb so‘rab qo‘yib, jichcha haqoratgayam uchradim. Nima deganini senga nima qizig‘i bor? Aytsam, ro‘za og‘izga to‘g‘ri kelmaydi. Bilasan, xo‘raz, jahlim tez, basharasiga qaratib bittani qo‘yay deb turuvdim, darrov gapni burvordi:

– Indinga iftorlik mendan. Lekigin ro‘zangni buzmay tur, tuzzumi? Savobam kerag-u sanlarga. Anavindan ikki baravar ko‘proq olasan, tuzzumi?

– Ha, tuzzu, bitta dasturxonga bitta halolpok odam kerag-u, – dedim haziltepa qilib.

Uyga kelib, hazmi taomga zardob ichib, ko‘rgan-kechirganlarimni kennaying bilan o‘rtoqlashayotsam... namuncha kitobiy gapirasiz deysanmi? Ha, gap o‘zi kitobga kep qoldi-da. Xullas, dasturxon ta’rifini eshitgan kennaying: “Mana, nimaga bizdan Farg‘oniy, Beruniylar chiqmaydi?! Chunki biz fantaziyamizni faqat nafsimizga, zahri-mahrimizga, to‘y-u ma’raka kimo‘zariga, arzon nom chiqazishga qaratganmiz!” desa bo‘ladimi? Xo‘p, shu gapga sen nima deyolgan bo‘larding? Bo‘pti-da, man ham indamay o‘zimni zardob quyilgan shishaga andarmonday ko‘rsatib qo‘yaqoldim. Nimayam derdim?

Ertaga milyardni uyiga borsammi-bormasammi deb, galavam qotib turibman.

Mulla XUNOB

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muyassar Ibrohimova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5908
Lotin yozuvidagi adadi – 11905
Buyurtma: G – 340.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:15
Sotuvda narxi erkin.